

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MADANIYAT VAZIRLIGI
O‘ZBEKISTON DAVLAT KONSERVATORIYASI**

To‘xtasin G‘ofurbekov

**“O‘ZBEKISTON MUSIQA MADANIYATI”
FANIDAN
O‘QUV QO‘LLANMA**

Toshkent-2018

Nashrga tayyorlovchilar:

- Tursunova R.O. – O‘zDK katta o‘qituvchisi;
Yoqubov Z.B. – O‘zbek milliy maqom san’ati markazi ilmiy xodimi.

Taqrizchilar:

- Hamidova M.A. – San’atshunoslik fanlari doktori, professor;
Murodova Z.A. – San’atshunoslik ilmiy tadqiqot instituti Musiqa bo‘limi boshlig‘i,
san’atshunoslik fanlari nomzodi.

O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan san’at arbobi, san’atshunoslik fanlari doktori, professor To‘xtasin G‘ofurbekov qalamiga mansub, O‘zbekiston musiqa madaniyatidan ushbu o‘quv qo‘llanma muallifning O‘zbekiston davlat konservatoriyasida 2001-yildan e’tiboran I bosqich magistr (musiqashunos va kompozitor)lari uchun yaratgan ma’ruzalari, seminar, amaliy mashg‘ulotlari zamirida yuzaga kelgan va keyinchalik, xususan, 2017-2018 o‘quv yili jarayonida takomillashgan. Mustaqillik samarasi bo‘lmish mazkur o‘quv fani hozirgi kunda Konservatoriyaning barcha magistrantlari uchun ham joriy etilgan. O‘quv qo‘llanma san’at, madaniyat oliy o‘quv yurtlari o‘qituvchilari va magistrarlari hamda O‘zbekistonda kuzatilayotgan musiqiy-ijodiy jarayon tadqiqotchilariga mo‘ljallangan.

Данное учебное пособие по предмету «Музыкальная культура Узбекистана» принадлежит перу Заслуженного деятеля искусств Узбекистана, доктора искусствоведения, профессора Тохтасына Батыровича Гафурбекова. Оно создано на основе лекций, материалов семинаров и практических занятий, написанных автором для слушателей магистратуры первого курса (музыковедов и композиторов) Государственной консерватории Узбекистана, начиная с 2001 года и совершенствованных в последующие годы, в омобенности 2017-2018 учебном году. Этот предмет, который является одним из достижений независимости, сегодня внедрён в учебные планы всех специальностей магистратуры. Учебное пособие рассчитано для преподавателей и магистров высших учебных заведений культуры и искусства, а также для исследователей музыкального творческого процесса наблюдаемого в Узбекистане.

This study guide which written by Artist served in Uzbekistan, Doctor of arts, Professor Tokhtasin Gofurbekov was created on the basis of lectures, seminars, practical studies of author for the first-year students of Master’s degree (musicologists and composers) from the beginning of the 2001 year in State conservatory of Uzbekistan, and thereafter was updated during the 2017-2018 academic years. Currently, the study guide like a result of Independence was established for all students of Master’s degree in State conservatory of Uzbekistan. It intended for tutors, educators and students of Master’s degree and musical-creative process researchers which exists in Uzbekistan

KIRISH


O‘zbek musiqa madaniyati XX asr mobaynida zalvarli, shu bilan birga birmuncha murakkab shakllanish hamda rivojlanish yo‘lini bosib o‘tdi. Agar asr boshi (20-30-yillar) va pirovardi (80-90-yillar)da yuksak ijrochilik tufayli o‘zbek xalqining mumtoz musiqa merosi (maqom, ashula, katta ashula kabi) janrlari jahon tinglovchilari e’tiborini jalb etgan bo‘lsa, asr o‘rtasi va 1970-yillardan e’tiboran mahalliy kompozitorlarning ayrim sahnaviy, xor va, ayniqsa, simfonik asarlari badiiy etukligi bois yaqin va uzoq xorijiy mamlakatlarda e’tirof etila boshlandi. Xuddi shu kabi, dastlab an’naviy professional ijrochilarimizgina tan olingan bo‘lsa, o‘tgan yuz yillikning so‘nggi choragida milliy (tanbur, g‘ijjak, nay, qonun kabi sozlardagi) va yevropacha (fortepiano, skripka, violonchel) cholg‘uchilik san’ati kun sayin tanilib kelmoqda. Nihoyat, musiqa ta’limi va ilmi sohalarida XX asrning birinchi yarmida, asosan, rus va boshqa yevropalik mutaxassislar nom chiqargan bo‘lsa, 1960-yillardan boshlab – mahalliy kadrlar evaziga shakllangan O‘zbekistonning musiqiy pedagogika va, ayniqsa, musiqashunoslik *maktablari* yuzaga keldi.

“O‘zbekiston musiqa madaniyati” fani 2014-2015-o‘quv yilidan e’tiboran konservatoriyaning 1-2 kurs magistrant-musiqashunoslariiga jami 156 soatli hajmda I-III semestrlarga mo‘ljallanib, ilk marotaba yaratilgan maxsus *dastur* bo‘lib, XX-XXI asr boshlarida musiqa san’atimiz erishgan yutuqlar tahlili, mavjud kamchiliklar sababli to‘g‘ri va obyektiv anglanishiga yo‘naltirilgan.


XALQARO MUSIQIY ALOQALAR TARIXIDAN

Ma'lumki, XIX asr oxiri – XX asr boshlaridan Hoji Abdulaziz Abdurasulov (1852-1936), Mulla To'ychi Toshmuhammedov (1868-1943)dek zabardast o'zbek san'atkorlari qator Sharq (Afg'oniston, Eron, Hindiston, Turkiya, Saudiya Arabiston, Misr kabi) va ayrim G'arb mamlakatlari bo'ylab o'z ijrochilik, ijodchilik mahoratlarini namoyon qilishgan. Boz ustiga bular va bir to'da o'zga xonandalar, sozanda-bastakorlar *talqinida* an'anaviy o'zbek klassik musiqa merosi namunalari Riga, Peterburg shaharlarining firmalari tomonidan grammonfon plastinkalariga yozilib, uzoq o'lkalarda ham keng tarqaladi. Bulardan farqli o'laroq, ommabop folklor janrlari, shu bilan birga "Turkiston", "Qamchinbek" singari "yangi zamon" qo'shiqlari va inchunin Hamza Hakimzoda Niyoziy (1889-1929)ning "Yasha, Sho'ro!" (ba'zi ma'lumotlarda – "Yasha To'ron!", "Hoy ishchilar!" kabi asarlaridan tuzilgan maxsus dasturni tayyorlagan Muhiddin Qoriyoqubov (1896-1957) va Tamaraxonim (1906-1991) dastlab Qo'qonda (1924 yil), so'ngra saralashlardan o'tib, Moskvada (1925 yil) bo'lajak Fransiya, Germaniya safarlari oldidan qator konsertlar berishadi. Kichik Akademik Badiiy teatr (MXAT) afishasida M.Qoriyoqubov ijro etgan asarlar – «Узбекские песни-примитивы» va yonida... «Великорусские песни»¹ deb atalgan (?!)-ligi taajublidir.


¹ Мухитдин Кари-Якубов: Документальная монография (Авт.-сост. Л.А. Авдеева; Научн. ред. и вступ. ст. М.Рахманова). -Т.: Изд-во лит. и искусства им. Гафура Гуляма, 1984. 68-бет.




*Hoji Abdulaziz
Abdurasulov*



*Mulla To'ychi
Toshmuhammedov*



Usta Olim Komilov



Muhiddin Qoriyoqubov
Petrosyan
Tamaraxonim



*Tamara Artyomovna
Petrosyan*
Tamaraxonim



Xalima Nosirova

Parijdagi konsertlar 1925-yili fransuzlarning Milliy bayrami – Bastiliyaning olinish kuni, ya’ni 14-iyulda boshlanadi va nihoyatda katta muvaffaqiyat ila o’tadi. Ulardan birini mahalliy tanqidchi Julen Odran shunday baholagan ekan: “Konsert Tamaraxonim va Qoriyoqubovlarning qo’shig‘i va raqsidan iborat nazokatli dueti bilan yakunlanib, u tinglovchilarni olqishlantirib yubordi va zal talabiga binoan “bis”landi”².

Mashhur “Komediya Zali”da o’tgan bu konsertlar deyarli har kuni takrorlanib... 31-avgustgacha davom etdi. Qo‘qqisdan betoblanib qolgan

² Shu manba, 70-bet.

Tamaraxonim davolanishi sabab M.Qoriyoqubov konsertlari o‘zga sahnalar, hatto Parijdagi markaziy “musulmon machit”i oldida davom ettiriladi. Tamaraxonim xotiralariga ko‘ra, o‘z ijodini Sharq musiqiy uslublari bilan izchil uyg‘unlashtirib kelgan Raxmaninov ham o‘zbek folklori namunalari va Hamza qo‘shiqlarini o‘ta e’tibor bilan tinglagan ekan³.

Fransiya gastrollari yangi (1926-yil) yil arafasidagina yakunlanib, M.Qoriyoqubov va Tamaraxonim maxsus taklif asosida Germaniya poytaxti Berlinga yo‘l olishadi, bu yerdagi o‘zbeklar iltimosiga binoan bir nechta uchrashuv-konsertlar o‘tkazishadi, O‘zbekistonning bo‘lajak musiqa san’atiga bag‘ishlangan “davra suhbat-munozara”da qatnashishadi. Bu gal ham mahalliy gazeta (“Folksishe Staytung” va b.)larda ijrochilarimiz mahoratiga eng yuksak baholar beriladi. Gastollar chog‘idagi “Erk bolalari” (G‘ulom Zafariy asari) kabi “kichik opera” muvaffaqiyati hamda fransuz, nemis musiqiy-sahnaviy san’ati ta’sirida M.Qoriyoqubovda – *o‘zbek musiqali teatrini* tashkil etish g‘oyasi shakllanadi. 1926-yilning aprelida u “O‘zbek davlat konsert-etnografik truppasi”ni tashkil etadi va tarkibida M.Miroqilov, Tamaraxonim, Yusufqiziq, J.Sultonov, M.Sattorov, Usta Olim, T.Jalilov, A.Umurzoqov, A.Ismoilov kabi serqirra san’atkorlarni birlashtiradi. Jarayonga Hamza (1918), G‘.Zafariy (1919), Sh.Xurshid (1922) truppalari an’analari asos qilib olinadi: ommabop folklor va klassik musiqa namunalaridan iqtiboslangan musiqiy sahnalar ustuvorланади. *O‘zbek davlat musiqali teatri* ta’sislaniши (1929-yil, 7-noyabr) va uning dastlabki repertuari (“Halima”, “O‘rtoqlar” va b.)ning o‘ziga xos xususiyatlari.

³ Shu manba, 76-bet.



М. Карим-Якубов в роли Насфана в опере «Лейли и Меджнун». 1940 г.



Слева направо: Усто Алим Камилов, М. Карим-Якубов, Р. М. Гиззар.



Isaboy Musoboyev, Sobogul Karimov, Bahodir Koroboyev
(Fergana)



Слева направо: Гарифа Рахимова, Мукинди Карим-Якубов, Танара Ханум.
Начало 30-х годов.


Meros evaziga “musiqlashtirilgan” spektakllardan bevosita musiqli dramalar (“Layli va Majnun” – 1933, “Farhod va Shirin” – 1934, “Gulsara” – 1936, “Nurxon” – 1942) va operalar (“Bo‘ron” – 1939, “Layli va Majnun” – 1940, “Ulug‘bek” – 1942)ga o‘tish jarayoni. Ilk baletlar tafsiloti.

Maxsus ta’lim tizimida Turkiston xalq konservatoriysi (1918), Toshkent musiqa texnikumi (1922, 1924-yildan bilim yurti), Oliy musiqa maktabi (1934), Toshkent davlat konservatoriysi (1936, 2002-yildan O‘zbekiston davlat konservatoriysi), qator boshlang‘ich musiqa

maktablarining o‘rni, mavqei, samaralari.

Toshkent shahri yaqin va uzoq xorij san’atkorlarining gastrol marshrutlaridan o‘rin olganligi bois, dunyo tanigan opera xonandalaridan A.Nejdanova, L.Sobinov, G.Pirogov; pianinochilardan K.Igumnov, L.Oborin, G.Ginzburg; skripkachilardan M.Erdenko, B.Fishman; arfachi V.Dulovalar bir necha marotaba O‘zbekistonga kelishadi. O‘z o‘rnida, o‘zbek ijrochilarining Moskva (ayniqsa, 1937-yilgi ilk san’at dekadasida), Peterburg, Kiyev va boshqa shaharlardagi gastrollari – u yerlik tanqidchi-musiqashunoslar diqqati (Yu.Fayer, M.Pekelis, G.Xubov va b.)ni jalb etadi.

Ikkinchi jahon urushi yillari Toshkentga evakuastiyalangan Sankt-Peterburg (Leningrad) konservatoriysi faoliyati: ta’lim, ijrochilik, ijodchilik va musiqashunoslik samaralari. D.Shostakovichning 7-simfoniyasi (1942-yil, 22-iyun), M.Shteynbergning 5-simfoniya-rapsodiyasi, G.Mushel, M.Ashrafiy simfoniyalarining premyeralari. Aynan shu davrda voqe’javob qo‘sishq va musiqali drama janrlariga e’tibor va talab kuchayishi. An’anaviy monodiyazamin ijod sohiblari – o‘zbek bastakorlari T.Jalilov, Yu.Rajabiy, keyingi avlod K.Jabborov, N.Hasanov, F.Sodiqov, S.Kalonovlar faolligi. Bulardan T.Jalilov va N.Hasanov, kompozitorlardan T.Sodiqov, M.Burhonov, A.Klumov va S.Vaynberg hamkorligida “O‘zbekiston qilichi” (1942, 29-aprel) konsert-spektakllariga musiqa yaratishadi, K.Jabborov va S.Kalonov kuylaridan M.Shteynberg (mazkur simfoniya-rapsodiya, III qism), Yu.N.Tyulin (kamer va simfonik asarlar), B.Arapov va A.Kozlovskiy (“Jaloliddin Xorazmiy” oratoriyasi) tomonidan foydalilanildi.



Yunus Rajabiy



To 'xtasin Jalilov




Fotima Boruxova, Kommuna Ismoilova, Siroj Aminov, Borux Zirkiyev, Orif Alimahsumov, Yunus Rajabiy, Ortiqxo ja Imomxo jayev, Karim Mo'minov, Shokirjon Ergashevlar

Asrning birinchi yarmida O'zbekiston musiqa madaniyatining mintaqaviy (musiqa ta'limi, zamonaviy ijrochilik sohalarida) yutuqlari, Frunze (hozirgi Bishkek, 1942), Toshkent (1944) va Moskva dekadalari, turli ko'rik, tanlov, festivallarda muvaffaqiyatli chiqishlar. O'zbek kuylariga asoslangan (R.Glier "Farg'onacha bayram", 1940, AQSh, Chikago) partituralarning uzoq xorijda yangrashi, T.Jalilov rahbarligidagi o'zbek xalq cholg'u asboblari orkestri gastrollari. Muqimiy nomidagi O'zbek davlat musiqali teatri (1929-

yildan), O'zbek davlat filarmoniyasi (1936-yildan), O'zbekiston kompozitorlari uyushmasi (1938-yildan), O'zbek davlat Katta Akademik opera va balet teatri (1948-yildan A. Navoiy nomida), qator viloyat, yirik shaharlarda ochilgan musiqali drama va komediya teatrлari faoliyati.

Mavzu rejasining diagramma shaklidagi ko'rinishi



Tayanch so‘zlar:

Folklor, meros, davr, janr, gastollar, musiqali teatr, Turkiston konservatoriysi, musiqa madaniyati.

Nazorat savollari:

1. “O‘zbekiston musiqa madaniyati” va unga turdosh o‘quv fanlari qamrovi va mohiyati nimada?
2. XIX asr oxirida O‘zbekistonga Yevropa (xususan rus) musiqa an’analarining kirib kelishi va izchil singdirila boshlanishi sabablari?
3. Xonanda va bastakor Hoji Abdulaziz Abdurasulovning xorijiy safarlari va samaralari?
4. Mulla To‘ychi Toshmuhamedovning xorijiy safarnomasini ta’riflang.
5. Hamza Hakimzoda Niyoziyning xorijiy safarlari – uning ommabop qo‘shiqlarida in’ikoslanishi?
6. Tamaraxonim va M.Qoriyoqubovlarning Fransiya hamda Germaniya gastrollari qanday o‘tgan?
7. Usta Olim Komilov, Tamaraxonim, To‘xtasin Jalilov va Abduqodir Ismoilovlarning London konsertlari qanday kechgan?
8. Avgust Eyxgornning O‘zbekistondagi faoliyatini yoritib bering

Adabiyotlar:

1. O‘zbek musiqasi tarixi. T., 1981.
2. A.Jabborov. Musiqiy drama va komediya janrlari O‘zbekiston kompozitorlarining ijodiyotida. T., 2000.
3. Ahmedov M., Ahmedova-Olimboyeva K. va b. “O‘zbek xalq sozandalari”. 1-2 kitob. T., 1959, 1974.
4. Мухиддин Кари-Якубов: Документальная монография (Авт.-сост. Л.А.Авдеева; Научн. ред. и вступ. ст. М.Рахманова). -Т.: Изд-во лит. и искусства им. Гафура Гуляма, 1984.

XX ASR IKKINCHI YARMIDAN O‘ZBEKİSTON MUSIQA SAN’ATINING JAHONGA YUZ TUTISHI

Dastlabki o‘nyillikdayoq, Toshkent davlat konservatoriyasi – butun Markaziy Osiyoga kompozitor, musiqashunos va turli toifadagi ijrochilar tayyorlab beruvchi maxsus ta’lim markaziga aylandi. Respublikada o‘rta maxsus musiqa bilim yurtlari va 10-11 yillik mакtablar soni 15 ga yaqin, 7 yillik bolalar mакtablari 300 dan ortiqqa yetdi. Biroq ko‘p yillar mobaynida musiqa ta’limining oliy, o‘rta va boshlang‘ich jabhalarida tugal bir tizim tarzida ustuvor etib, Yevropa andozalarigagina tayanilar edi: 1934-yili Oliy musiqa maktabi, 1936-yildan Toshkent davlat konservatoriyasi deya atalgan dargohga avval ana shu yevropacha (musiqa nazariyasi va pedagogikasi, kompozitsiya hamda barcha ijrochilik) ta’lim berilib, hatto o‘zbek cholg‘u asboblari fakulteti 1948-yildagina ochilgan. Xuddi shu tarzda, XX asr o‘rtalaridan ketma-ket faoliyat boshlagan o‘rta bo‘g‘in o‘quv yurtlarida ham, avvalo, Yevropa sozlari, xonandaligi, musiqa adabiyoti va nazariyasiga urg‘u berib kelgan, “markaz” dasturlarigagina tayanilgan. Faqat 1972-yildagina Toshkent davlat konservatoriyasida “Sharq musiqasi kafedrasи” ta’sis etilishi, bu bir tomonlikka chek qo‘yib, an’anaviy sharqona ta’lim tizimi – xonandalik, sozandalik va musiqashunoslik sohalarida joriy etilishini ta’minlab berdi. Shu bilan birga, hozir mavjud 300 dan ziyod 7 yillik, 5 ta o‘rta maxsus musiqa mакtablari, 14 ta musiqa (aksariyati san’at) bilim yurtlarida hanuz “ikkilanish” alomatlari namoyon bo‘lmoqda. Yangi asr, navqiron mingyillik – O‘zbekiston musiqa ta’limiga tubdan yangicha bakalavriat-magistratura-doktorantura (yoinki, assistentura) tizimini olib kirgan ekan, bu sohada tub burilishlar yuzaga kelmoqda.

O‘zbek bastakorlik ijodiyotiga asrning so‘nggi choragida o‘z intilishlari bois o‘sib chiqqan – A.Ismoilov, O’.Rasulov, A.Dadayev kabi yangi avlod vakillari kirib kelib, bu soha izchil izlanishlar samarasi o‘larоq –

*polimonodiya*⁴ kabi uslubiy yangilanishlar bilan boyidi. Biroq qariyb 15 asrli tarix, boy an'analar, uslubiy kashfiyotlar va o'ziga xos falsafiy, estetik va etik tamoyillarga ega bu ijod hanuz o'rta va oliv maxsus ta'lim tizimlaridan o'rin olgani yo'q.

Buning asosiy sabablaridan biri – 1950-yillar boshida ana shu bastakorlik ijodiyoti mahsuli bo'lmish maqomlar O'zbekistonning o'zida “feodalizm sarqiti”, “saroy san'ati” deya tamg'alanishi, ikkinchisi – “markaz”dan tinimsiz yog'ilib turgan ko'rsatmalar⁵, ba'zan o'rinli, aksariyati esa, o'rinsiz tanqid-u subyektiv mulohazalarda⁶ bo'lgan. Shu bilan birga, Toshkent davlat konservatoriyasi asr o'rtasiga kelib, Ik.Akbarov, S.Boboyev, D.Zokirov, A.Muhammedov, H.Rahimov kabi kompozitorlar, F.Karomatov, K.Olimboyeva singari musiqashunoslar, qator xonanda (H.Nosirova, N.Hoshimov, S.Qobulova, S.Yarashev, E.Yo'ldoshev)lar, sozanda (F.Xarratov, A.Odilov, M.Tairov, O.Yusupova)lar,



dirijyor (A.Abduqayumov, D.Abdurahmonova)larni tayyorlab berdi. Kuzatilayotgan davrda M.Qoriyoqburov nomini olgan O'zbek davlat filarmoniyasining simfonik orkestri (dirijorlar N.Olimov, A.Kozlovskiy, Z.Haqnazarov – jahon klassikasi,

XX asr sara partituralari, O'zbekiston kompozitorlari asarlari), xor kapellasi,

⁴Qarang: T.G'ofurbekov. Polimonodiya – o'zbek bastakorligi mahsuli // Guliston. 2001. №1.

⁵ Кааранг (ва о'зингиз меzonlang): Необходим решительный перелом о состоянии музыкального искусства в республиках Средней Азии// «Советская музыка».1949, №1; Резолюция Второго пленума правления ССК// shu jurnal. 1949, №3; Ближе к запросам народа// shu jurnal 1959, №7.

⁶ Виноградов В. Творчество композиторов республик Средней Азии и Казахстана// Теоретические и критические статьи. М.: 1954; Сабинина М. Узбекская музыка сегодня// «Советская музыка».1959, №1 va b.

torli kvarteti, “Bahor” va b. ansamblar faolligi seziladi.

Shu bilan birga, O‘zbekistonga – K.Kondrashin, N.Raxlin, Yu.Fayer, K.Ancherl, K.Iliyev, Kan San U, M.Kratyan, J.Boudri, E.Simon kabi dirijyorlar, L.Kogan, M.Rostropovich va G.Vishnevskaya, E.Gilels, D.Shafran, G.Cherni-Stefanska, M.Az, I.Stern, M.Reyzen, A.Ognivstev, D.Andguladze, Ima Sumak singari sozanda va xonandalar, Eston “Vanemuine” teatri, “Grand opera”, “La Skala” teatrlarining solistlari, V.Minin rahbarligidagi Moskva kamer xori, Minnesota universitetining puflama sozlar orkestri va Benni Gudmen rahbarligidagi djaz-orkestr gastrollar uyushtirishgan.

XX asr 2-yarmida O‘zbekiston musiqashunosligi muayyan yutuqlarga erishdi: F.Karomatov, T.Vizgo, I.Rajabov, N.Yanov-Yanovskaya, T.G‘ofurbekov, O.Matyoqubov, R.Abdullayev, A.Hoshimov, A.Nazarov, O.Azimova va boshqa olimlarning – qator anjumanlar, Xalqaro Musiqa Kengashining VII Kongressi (Moskva, 1971), Osiyo mamlakatlari 3-Musiqa minbari (Almati, 1973), “Maqom” guruhi yig‘ilishlari, I-III Xalqaro musiqashunoslik simpoziumlari (Samarqand, 1978, 1983, 1987)da qatnashishi, 1990-yillardan ular doirasida Barbad simpoziumi (1990, Dushanbe), “Sharq taronalari” (Samarqand, 1997-yildan e’tiboran) va “Boysun bahori” festivallarining ilmiy anjumanlari (R.Yunusov, J.Rasultoyev, O.Ibrohimov, A.Jumayev, va b.) bilan kengayishi.

Mustaqillik yillarida bular qatori Xalqaro simfonik musiqa, “Ilhom XX”, kamer musiqa festivallarida muntazam ishtirok etayotgan AQSh, Yevropa, Yaqin, O‘rta va Uzoq Sharqning o‘nlab san’atkorlari bilan boyimoqda.

San’atshunoslik ilmiy-tadqiqot instituti huzurida dastlab “K” (1981-1992), 1993-yildan esa “D” indeksli Ixtisoslashgan *mintaqaviy* kengashlar tashkil etilishining Markaziy Osiyo, Kavkazorti, Ukraina, Sudan, Suriya, Iordaniya, Yaman, Yaponiya va b. ilmiga keltirayotgan samarasi, mintaqadagi qo‘shni (Turkmaniston, Tojikiston, Ozarbayjon, Qozog‘iston kabi) davlatlar uchun tayyorlangan ilk fan doktorlari, uzoq xorijdagi ilmiy darajali *birinchi*


*san'atshunoslar*⁷.

O'zbekiston musiqa madaniyatida – Mustaqillik yillarida: maxsus ta'lim an'anaviy va zamonaviy ijrochilik, musiqali teatr, simfonik musiqa, bastakorlik ijodiyoti, musiqashunoslik sohasidagi ufqiy o'zgarishlar.

Jarayonga – O'zbekiston Respublikasining “Davlat tili” haqidagi Qonuni (1989-yil, 21-oktabr), ma'naviyat va kadrlar tayyorlash Milliy dasturlari (1997-yil), Istiqlol mafkurasi, Milliy Istiqlol g'oyasi konsepsiyalari, “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakati (hozirgi kunda – O'zbekiston yoshlar ittifoqi) tashkil etilishining ijobiy ta'siri. Respublika va jahon miqyosida m a q o m san'atini rivojlantirishga oid qarorlar – “O'zbek milliy maqom san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” (PQ-3391, 2017-yil 17-noyabr) hamda “Xalqaro maqom san'ati anjumanini o'tkazish to‘g‘risida” (PQ-3656, 2018-yil 6-aprel)gi qarorlar mohiyati.

⁷ “San'atshunoslik masalalari” (T.: 1998) va “O'zbekiston san'atshunosligi” (T.: 2003) to‘plamlaridagi ma'lumotlarga qaralsin.

Mavzu rejasining diagramma shaklidagi ko‘rinishi



Tayanch so‘zlar:

Musiqa o‘quv yurtlari, “Sharq musiqasi” kafedrasasi, musiqiy ta’lim, bastakorlik, ijodiyot, maqomlar, musiqashunoslik, birinchi san’atshunoslar, an’anaviy ijrochilik.

Nazorat savollari:

1. Toshkent davlat konservatoriyaning dastlabki yillardagi faoliyatini ochib bering.
2. “Sharq musiqasi” kafedrasining ochilishi sabablari.

3. Bastakorlik ijodiyotining o‘ziga xos tomonlarini ta’riflab bering.
4. 1950-yillar boshida maqom sana’tiga bo‘lgan munosabat qanday bo‘lgan?
5. San’atshunoslik ilmiy-tadqiqot instituti faoliyatini ochib bering
6. XX asr 2-yarmida O‘zbekiston musiqashunosligining qo‘lga kiritgan muayyan yutuqlari nimada?
7. Mustaqillik yillarda O‘zbekiston musiqa madaniyatiga oid tanlovlardan – “O‘zbekiston – Vatani manim” (1995-yildan) mohiyati.
8. Xalqaro festivallar o‘rni va mavqeini ochib bering (“Sharq taronalar”, “Boysun bahori”, “Ilhom-XX”, “Xalqaro maqom san’ati anjumani” va b.)

Adabiyotlar:

1. “San’atshunoslik masalalari” (T.: 1998) va “O‘zbekiston san’atshunosligi” (T.: 2003) to‘plamlari.
2. G‘ofurbekov T. Polimonodiya – o‘zbek bastakorligi mahsuli // Guliston, 2001. №1.
3. Виноградов В. Творчество композиторов республик Средней Азии и Казахстана// Теоретические и критические статьи. М.: 1954;
4. Сабинина М. Узбекская музыка сегодня // «Советская музыка». 1959, №1 va b.

MUSTAQIL O‘ZBEKISTON MUSIQASI – UMUMJAHON MUSIQA MADANIYATINING TARKIBIY QISMI

Bir necha o‘n minglab (so‘nggi ma’lumotlarda – 55 mingdan ziyod) ajdodlarimiz qurbanligi bilan ko‘chgan XIX asr o‘rtalaridan boshlangan Rossiya mustamlakasi va XX asrda unga ulanib ketgan Sho‘rolar davri O‘zbekiston musiqa madaniyati taraqqiyotidagi eng murakkab pallalardir. Shu bois, 1980-yillar pirovardida sobiq Ittifoq qulay boshlab, uning tarkibidan ketma-ket Boltiqbo‘yi, Gruziya, Ozarbayjon respublikalari chiqib ketayotgan siyosiy tarang bir jarayonda O‘zbekistonda ham dastlab Farg‘ona, so‘ng

Toshkent, Andijon va boshqa joylardagi voqealarda bir tomondan, – millatlararo mojarolar yuzaga kelgan bo‘lsa, ikkinchi tarafdan, – xalqimiz tomonidan *o‘zligini anglash* tuyg‘ulari kuchaydi.

Xususan, 1989-yilning 2-yarmida o‘zbek millatining uyg‘onishini ta’minlashga, O‘zbekistonda yashab turgan barcha millat va elatlarning milliy-madaniy rivojlanishi uchun imkoniyatlarni kengaytirishga doir ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy tadbirlarni markazdan mustaqil ravishda ishlab chiqishga harakat kuchaydi.⁸

Ana shu yilning 21-oktabrida qabul etilgan “Davlat tili haqida”gi Qonunga binoan, ilk marotaba o‘zbek tili – *davlat* tili statusini oldi. 1990-yilning 20-iyunida Oliy Kengashning 12-chaqiriq 2-sessiyasida “O‘zbekistonning Mustaqillik Deklaratsiyasi” e’lon qilindi, oradan atigi o‘n oy o‘tgach, navbatdan tashqari sessiyada – O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligi e’tirof etilib, 1-sentabr – Mustaqillik bayrami kuni sifatida belgilandi, 29-dekabr kuni o‘tkazilgan umumxalq referendumi O‘zbekiston davlat mustaqilligini rasman tan oldi va uning birinchi Prezidenti I.A.Karimov saylandi.

Tabiiyki, asrlarga tatigulik mazkur kunlar – ijtimoiy va ma’naviy hayotimizning barcha jabhalari o‘laroq, musiqa madaniyatimiz odimlarini jadallashtirib yubordi.

Bosib o‘tilgan yillar mobaynida O‘zbekistonni – jahoning BMT, YeXHT va, ayniqsa, YuNESKO kabi eng nufuzli tashkilotlari, 140 ga yaqin beshala qit’a davlatlari bilan izchil o‘tkazilayotgan aloqalarda – folklor, an’anaviy mumtoz va ayrim zamonaviy inchunin, YuNESKO homiyligida o‘tkazilgan Amir Temurning 660 yilligi (1996), Buxoro va Xiva shaharlarining 2500 yilligi (1997), “Alpomish” dostonining 1000 yilligi (1999), har ikki yilda (1997-yildan) o‘tkazilayotgan “Sharq taronalari” Xalqaro musiqa festivali, 2018-yil 6-10-sentabr kunlari ilk marotababa o‘tkazilgan, har ikki yilda o‘tkazilishi rejalashtirilgan “Xalqaro maqom san’ati anjumani” jahon ilm va

⁸ “O‘zbekiston Respublikasi». Ensiklopediya. - T.: QBT, 1997. 184-bet.

san’at ahli e’tiborini jalg etib, e’tirof doirasi kengayib bormoqda.

Shu bilan birga, ayni O’zbekiston Mustaqilligining *yirik* sanalari, hanuz ijobjiy echimini topib ulgurmagan ayrim masalalarni ko‘ndalang qo‘yishni taqozo etmoqda. Bulardan eng muhimi, o‘zbek *bastakorlik* ijodiyotidir.

Gap yuqori (ya’ni 2-mavzu)da ta’kidlangandek, mazkur ijod – maxsus o‘rta va oliv musiqa o‘quv yurtlarida ta’lim tizimiga singdirilishidagina emas. Balki o‘zining bir yarim mingyillik tarixi va ochiq aytish mumkinki, *achinarli* taqdiriga ega, lekin ko‘p jihatlari o‘laroq, muayyan shakllargina emas, balki *uslubiy betakrorligi*, mavzu hamda mazmunlari teran ifodalanishi, o‘zigagina xos rivojlanishi bilan keng doiradagi tinglovchilaru mutaxassislargaga mo‘jizaviy ta’sir ko‘rsatib kelayotganligidadir.

Biroq shu kunga qadar O’zbekiston olimlari (aynan musiqashunoslar) himoya etgan o‘nlab nomzodlik va doktorlik dissertastiyalarining... birontasida (!) asosiy obyekt tarzida bastakorlik ijodiyoti yoinki bironta muayyan bastakor asarlari – asosiy fenomen tarzida tanlanmagan (“O’zbekiston musiqa ilmi” mavzusiga qaralsin).


Demak, Jahan madaniyati tarkibida o‘z mavqeini kun sayin mustahkamlab borayotgan O’zbekiston musiqa san’ati XX asrdagi yutuqlarini yanada takomillashtirish, mavjud kamchiliklarini jadal bartaraf etishi zarur.

O‘zbek kompozitorlari (M.Bafoyev, R.Abdullayev, H.Rahimov, A.Ergashev va b.)ning asarlari AQSh, Evropa va Osiyoda ijro etilishi, O’zbekistonda esa mazkur qit’alar mualliflari “Ilhom – XX”, Xalqaro simfonik musiqa va “Sharq taronalari” festivallarida qatnashishi, butun dunyo maqom san’ati ustalari hamda maqomshunos olimlarning Shahrисabz shahrida “Xalqaro maqom san’ati anjumanı”da ishtrok etishi, bular doirasidagi ilmiy anjumanlar geografiyasi kengayib, milliy folklorimiz va maqomlarga oid xorij olimlarining ma’ruzalari, o‘zbek musiqashunoslarning tadqiqotlari chet ellarda nashr etilishini kengroq yoritish darkor.

So‘nggi davr (2003-yildan) mobaynida O’zbekiston davlat konservatoriysi mavqeい ortib, nainki Markaziy Osiyo, MDH, balki jahon

miqyosida maxsus ta’lim, musiqiy ijodiyot, an’anaviy va zamonaviy ijrochilik hamda musiqashunoslik markaziga aylanib borayotganini alohida ta’kid etilmoqda.

Mavzu rejasining diagramma shaklidagi ko‘rinishi



Tayanch so‘zlar:

O‘zbek millati, BMT, YuNESKO, Amir Temur, Alpomish, “Sharq taronalari”, uslubiy betakrorlik, nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalari, fenomen, o‘zbek kompozitorlari.

Nazorat savollari:

1. O‘zbekiston musiqa madaniyati taraqqiyotidagi eng murakkab pallalari

haqida so‘zlab bering

2. 1989-yilning 2-yarmida o‘zbek millatining qayta uyg‘onishini ta’minlash qaysi harakatlar misolida gavdalangan?
3. Musiqa madaniyati uchun Mustaqillik qo‘lga kiritilishining ahamiyatini ochib bering
4. Xalqaro ilmiy anjumanlar va festivallarimiz – jahon ilm va san’at ahli e’tiborini jalg etishdagi o‘rnini aniqlab bering
5. O‘zbek bastakorlik ijodiyoti masalalari va muammolari
6. Musiqashunoslik ilmi: muammo va yechimlar
7. O‘zbekiston musiqa san’atining XX asrdagi yutuqlarini ochib bering
8. O‘zbekiton Davlat Konservatoriyasi faoliyati: kecha va bugun

Adabiyotlar:

1. “O‘zbekiston Respublikasi”. Ensiklopediya.- T.: QBT, 1997.
2. “San’atshunoslik masalalari” (T.: 1998) va “O‘zbekiston san’atshunosligi” (T.: 2003) to‘plamlari.


O‘ZBEK MUSIQALI TEATRI

Yakunlangan XX asr mobaynida O‘zbekistonda *musiqali teatr*, aniqrog‘i – o‘nyilliklardagi taraqqiyot jarayonini bosib o‘tib, muayyan bir fenomen tarzida o‘zbek *musiqali teatri* shakllandi⁹. Mazkur jarayonni qisqagina qilib chizgilaydigan bo‘lsak, nihoyatda dinamik, shu bilan birga retrospektiv silsilasini ko‘ramiz.

Birinchi bosqichda o‘zbek milliy meros (xalq teatri an’analari) va o‘zbek milliy musiqa merosi namunalardan olingan “iqtibos”li musiqali spektakllar odad tusiga kiradi. Birlamchi bu davr 1910-20-yillarga to‘g‘ri kelib, ana shu ikki *asoszamin* omilga tayangan, bir-birini inkor etmagan quyidagi arboblar tomonidan amalga oshirildi. Xususan, *Hamza Hakimzoda Niyoziy*

⁹ Qarang: Говорят музыканты Узбекистана: двадцать лет спустя //Музыкальная Академия. 2004. №1.

(1889-1929) va G‘. Musaxonovlar vodiyyda tashkil etgan “Farg‘ona sayyor o‘lka sayyoh drama truppasi”da Hamzaning “Zaharli hayot, yohud ishq qurbanlari” (1916) va ayrim o‘zga mualliflarning muxtasar inssenirovkalarida, G‘ulom Zafariy (1899-1937) Andijon, so‘ngra Toshkentda – “Baxtsiz shogird” (1914), “Bahor”, “Yorqinoy”, “Binafsha”, “Quyon”, “To‘sqinchilik”, “Rahmli o‘qituvchi”, “Maqtanchoq kishi” va, ayniqsa, “Halima” ommaviy premyerasi (1920-yilning 14-sentabrida) asarlarida jarayon tamal toshini o‘rnatdilar.




Hamza va Zafariylardan farqli o‘laroq, Shamsiddin *Xurshid* Sharafiddinov (1892-1960) – “Eskilik va yangilik” (1918), “Turkiston” (1920) kabi o‘z asarlaridan so‘ng, Alisher Navoiyning “Layli va Majnun”, hamda “Farhod va Shirin” dostonlarini 1922-yili Toshkentda – Sh.Shoumarov, To‘ychi Hofizlar maslahati bilan ustuvor bir tarzda maqomlar (“Shashmaqom”, Farg‘ona-Toshkent maqom yo‘llari)dan tanlab olingan iqtiboslar evaziga sahnalashtiradi. Bunday hol bir qator viloyat (Buxoro, Samarqand, Farg‘ona)larda ham kuzatiladi.

Jarayonning *ikkinci bosqichida*, musiqiy ijod sohasida avvalgilardan farqli ravishda xalq musiqa merosi namunalari – asl ma’nodagi musiqali dramalarga aylantirila boshlandi. Xususan, Xurshid librettosi va birlamchi tanlangan “Shashmaqom” hamda Farg‘ona-Toshkent maqom turkumlaridan “iqtibos” tarzida kiritilgan deyarli barcha parchalar saqlanibgina qolmay, mustaqil yondashishlar evaziga boyitilgan T.Sodiqov va N.Mironovlarning “Layli va Majnun” (1933, avgustida), V.Uspenskiyning “Farhod va Shirin” (1936, 2-fevral) musiqali dramalari sahnalashtirildi.

Boz ustiga, ayni shu davrda o‘ta zamonaviy tuyulgan – o‘zbek xotin-qizlari ijtimoiy ozodligiga da’vat etuvchi T.Sodiqov va R.Glierlarning “Gulsara” (K.Yashin librettosi, 1935, 5-may) asari ham katta muvaffaqiyat ila


sahna yuzini ko‘rdi.

Sanab o‘tilgan deyarli barcha musiqali dramalar nainki O‘zbekiston, balki bir qator qo‘shni hududlardagi (O‘sh, Xo‘jand) teatrlarda ham 1920-1930-yillardayoq ketma-ketiga sahnalashtirila boshlaganligi – tom ma’nodagi o‘zbek musiqali teatri o‘zigagina xos xususiyatlari bilan shakllanganligidan dalolat beradi. Demak, hozirgi kunga qadar faqat O‘zbekistondagina odat tusini olib kelayotgan va, ochig‘ini aytganda, jami 16ta¹⁰ musiqali teatrlarimizdan – 13 tasi (!)ayni musiqali drama va komediyalarga mo‘ljallangan bo‘lib, mazkur janr uzoq va yaqin o‘tmish, hamda zamonaviy pallada o‘zining voqe’bandligi,



ijtimoiy hayotni aks ettirishda hozirjavobligi bois, boshqa (opera, balet, operetta kabi) musiqali sahnnaviy janrlar orasida *eng ustuvorli* ekanligi yanada ayonlashayotganligi aniqdir.

Buning isbotini Ikkinci jahon urushi yillarida, o‘zbek o‘g‘lonlari taqdirida sodir bo‘layotgan jang maydonlaridagi murosasiz kurash bilan bevosita bog‘liq – “Qurban Umarov” (1942, 3-sentabr, S.Abdulla va Chustiy librettosi, T.Jalilov va G.Shperling musiqasi), “Qasos” (1941, 19-dekabr,



A.Umaryi va Sh.Tuyg‘un librettosi, Yu.Rajabiy va B.Nadejdin musiqasi), “Qo‘chqor Turdiyev” (1942-yil, 14-may voqeasi – 1942, 5-dekabr, Chustiy va S.Abdulla librettosi,

Yu.Rajabiy va B.Nadejdin musiqasi) kabi musiqali dramalar misolida yaqqol

¹⁰ Alisher Navoiy nomidagi opera va balet teatri, Muqimiy nomidagi O‘zbek davlat musiqali teatri, operetta teatri, 11 viloyat hamda Qoraqalpoq va Qo‘qon musiqali drama va komediya teatrлari nazarda tutilmoqda.

ko‘rish mumkin. «O‘zbekiston qilichi» nomli dolzarb konsert-spektakl ham (1942, 29-aprel) bunga qo‘shimchadir. 1940 va, ayniqsa, 1950-yillarda o‘zbek musiqali dramasi va komediyasining *ilk badiiy yetuk* (klassik) namunalari yaratildi: “Nurxon” (1942, 23-dekabr, K.Yashin librettosi, bastakor T.Jalilov kuylari; yangi tahrirlari – Ya.Sherfedinov bilan, 1943; G.Sobitov bilan, 1952), “Oltin ko‘l” (Uyg‘un librettosi, M.Leviyev musiqasi, 1949, 6-noyabr), ayniqsa, T.Jalilovning G.Mushel hamkorligida – “Muqimiy” (S.Abdulla librettosi, 1953, 9-dekabr), “Ravshan va Zulhumor” (K.Yashin librettosi, 1953) kabi asarlar nazarda tutilmoqda.

Shu davrdan boshlab M.Leviyev kabi yana bir qator kompozitorlar *mustaqil* (hamkoriksiz) asarlarini yaratishdi: S.Boboyev – “Vatan ishqisi” (Sh.Sa’dulla va Z.Fatxullin librettosi, 1957, 7-noyabr), Ikrom Akbarov – “Momo yer” (Ch.Aytmatov qissasi asosida T.To‘la librettosi, 1965, iyun), A.Muhammedov – “Jon qizlar” (K.Shang‘itboyev va K.Boyseitov pyesasi, 1963), M.Leviyev – “Toshbolta oshiq” (H.G‘ulom, 1961). Faqatgina Yu.Rajabiy va S.Jalilning “Navoiy Astrobodda” (I.Mahsumov, 1968) – “lirik-dramatik hikoya”lari bundan istisnodir, zero har ikkala ijodkor – yorqin monodiyazamin mualliflardandir.

O‘zbek musiqali dramasi va komediyasining XX asr so‘nggi choragida erishgan *umumbashariy* xususiyatlaridan biri – Markaziy Osiyo, xorijiy Sharq va G‘arb: M.Mahmudov – “Hiylai sha’riy”, R.Gyuntekin; M.Bafoyev – “Roja”, R.Tagor; Yevropa: Ik.Akbarov – “Qonli to‘y”, G.Lorka; R.Vildanov – “O’n ikkinchi kecha, yohud Turfa hangomalar”, U.Shekspir; M.Bafoyev “Prometey”, (Yu.Marstinskyavichus) mavzulariga astoydil chiqishlarida ko‘rinadi. Hatto, ayrim qo‘shni davlatlar adiblariga murojaatlar (o‘zlaridagiga nisbatan) izchilroq o‘rin olmoqda: Chingiz Aytmatov qissalari asosida – Ik.Akbarovning “Momo yer”, M.Leviyevning “Qizil durrali nozik niholim” ana shular jumlasidandir (bunga N.Zokirovning “Manqurt” baleti, telefilm musiqalari qo‘shiladi).

Xullas, o‘z tarixini XX asr ilk choragida boshlagan o‘zbek musiqali

dramasi va komediyasi, hozirda shaklan hamda janran boyidi, mazmunan keng qamrovli darajaga ko‘tarildi.

“O‘zbek musiqali teatri” mavzusi mahalliy musiqali drama va komediya janrlari bilan chegaralanmaydi. Mavzuga mazmunan va mantiqan *opera* hamda *balet* janrlarining O‘zbekistonda shakllanishi va qariyb 65 yildan ziyodroq yo‘lni bosib o‘tib, har birining o‘ziga xos rivojlanish, yuksalish va ba’zan sustlashish jarayonlari kuzatilgan.

Yuqorida ko‘rib chiqilgan o‘zbek musiqali dramasi va komediyasi – avvalo tub *milliy* (sahnaviy va musiqiy) an’analarga tayangan bo‘lsa, opera va balet ijodiyoti mazkur an’analar hamda shu janrlar bilan bog‘liq Yevropada XVI asrdan e’tirof etilgan italyancha, fransuzcha, nemischa san’at andazalari va boshqa qadriyatlarni o‘zida mujassam etishi zarur.

Ma’lumki, O‘zbekistonda mahalliy mavzular asosida yaratilgan ilk opera va baletlar – birgina o‘nyillik, ya’ni 1930-yillarga to‘g‘ri keladi. Bularning keyingi rivojlanish yo‘li, musiqa madaniyatimizda tutgan o‘rni, taqdiri hatto shu kunga qadar sahnalashtirilgan asarlarning umumiyligi sonida va har birida (jami 35 asar atrofida) muayyan *mushtaraklik* belgilari mavjud. Biroq tasodifiy “buyurtma”ga binoan milliylikdan birmuncha yiroq ASM (Yangi Vena maktabiga yuz tutgan – “Zamonaviy musiqa assotsiatsiyasi”)ning faol a’zosi N.Roslavetsning “Paxta” (L.Voshene librettosi, premyera: 1933-yil, 29-yanvar) yoki endigina konservatoriyanı tugatib, tajribaga ega bo‘lmagan F.Talning “Shohida” (Yo.Yusupov va A.Bender librettosi, premyera: 1939-yil, 2-iyun) baletlari tez orada Sharq mavzulari borasida tajribali S.Vasilenko va M.Ashrafiyning “Bo‘ron” (K.Yashin librettosi, premyera: 1939-yil, 11-iyun), R.M.Glier



va yosh o‘zbek kompozitori T.Sodiqov hamkorligida yaratilgan “Layli va

Majnun” (Sh.Xurshid librettosi, premyera: 1940-yil, 17-iyun) operalari XX asr mobaynida va XXI asr boshlarida ham sahnalashtirilib kelinmoqda.

Lekin ana shu so‘nggi ikki asar bilan yonma-yon yaratilgan ayni S.Vasilenko va M.Ashrafiyning “Ulug‘ kanal” (1941, K.Yashin librettosi), A.Kozlovskiyning “Ulug‘bek” (1942, A.Kozlovskiy va G.Geruslar librettosi), O.Chishkoning “Mahmud Torobiy” (1944, Oybek librettosi) operalari o‘z premyeralaridan so‘ng sahnani tez orada tark etishdi. Sababi, bularda milliylik bir chekkaga surilib (o‘nlab xalq kuylaridan foydalanganligiga qaramay!), Yevropa andozalari ustuvorlashib ketgan.

Xuddi shu asnoda E.Brusilovskiy “Gulandom” (1940, Tamaraxonim va Uyg‘un librettosi), S.Vasilenko va tajribali baletmeyster F.Lopuxovlar yaratgan “Oq bilak” (1943, M.Turg‘unboyeva va V.Smirnov librettosi) baletlari ham tez orada sahnadan tushib ketadi.

Demak, o‘zbek musiqali teatri o‘zining ilk qadamlarida “Nurxon”, “Bo‘ron”, “Layli va Majnun”, kabi badiiy ta’sirchan asarlar bilan bir qatorda, tavakkallik yoinki tasodifiy “buyurtma”lar oqibatida yaratilgan saviyasi past, mantiqan tushuntirib bo‘lmaydigan misollarga ham duchor bo‘lgan va afsuski, bundayin noo‘rinliklar keyin ham sodir bo‘lib kelgan.

O‘zbekistonning *o‘zigagina* xos musiqali teatri mavjudligi Ikkinchijahon urushidan so‘ng, 1950-yillar oxirida yorqin namoyon bo‘ldi. Bastakor T.Jalilovning “Tohir va Zuhra” (yangi tahriri) va “Alpomish” (1949, G.Sobitov bilan hamkorlikda), “Muqimiy” (1953, G.Mushel bilan), “Ravshan va Zulkumor” (1957, G.Mushel bilan) kabi musiqali dramalari, M.Leviyevning “Oltin ko‘l” (1949) musiqali komediyasi va S.Boboyevning “Vatan ishq” (1958) musiqali dramasi – mazkur ikki janrning *badiiy yetuk* namunalari sifatida nainki O‘zbekistonda, balki butun Markaziy Osiyoda va hatto Moskva, Leningrad kabi teatr san’ati markazlarida tanildi va tan olindi.

Ayni Rossiya shaharlarida ketma-ketiga (1951, 1959-yy.) o‘tkazilgan o‘zbek adabiyoti va san’ati dekadalarida – S.Yudakovning S.Abdulla va M.Muhamedov librettosiga yaratgan “Maysaraning ishi” hajviy operasi,

M.Ashrafiyning “Dilorom” operasi, G.Mushelning “Raqqosa” baleti ham katta muvaffaqiyat qozonib, qator yirik (V.Sukkerman, M.Sabinina, S.Korev va b.) musiqashunoslar diqqatini jalg etadi (ana shu yillarga oid «Советская музыка» jurnali qaralsin).

O‘zbek musiqali teatrining keyingi balog‘atli pallasi XX asrning 60-70-yillariga to‘g‘ri keladi. Zero, ayni mazkur o‘nyilliklarda mahalliy kompozitorlar (va ayrim bastakorlar) milliy mavzular doirasidan – Yevropa va o‘zga Sharq adiblari asarlariga izchil murojaat etish bilan tubdan kengaytiriladi. Ikrom Akbarovning “Qonli to‘y” (F.Garsia Lorka) va “Momo yer” (Ch.Aytmatov), R.Vildanovning “O‘n ikkinchi kecha, yohud Turfa hangomalar” (U. Shekspir), M.Leviyevning “Qizil durrali nozik niholim” (Ch.Aytmatov), A.Muhammedovning “Jon qizlar” (K.Shang‘itboyev va K.Boyseitov), D.Soatqulovning “Guli siyoh” (Sohib Jamol), M.Bofoyevning “Roja” (R.Tagor) va “Prometey” (Yu.Marstinskyavichus) singari musiqali drama va komediyalari buning namunalaridir.

Ayni shunday jarayon opera va balet janrlarida O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan so‘ng sodir bo‘la boshlaydi: N.Zokirov – “Gamlet” va “Makbet” opera-dilogiyasi (U.Shekspir), “Manqurt” baleti (Ch.Aytmatov).

O‘zbekistonda *operetta* janri shakllanishi, hozirgi ahvoli, bo‘lajak yo‘nalishlari.

Mavjud ijobiy o‘zgarishlar va milliy mavzularning musiqiy-sahnaviy talqinlarini yanada teranlashtirish – o‘zbek musiqali teatri kelajagini XXI asrda ham mustaqil, *o‘zigagina xos* yo‘nalishlarda ravnaq topishiga kafolat bo‘la oladi.

Tayanch so‘zlar:

Musiqali teatr, opera, operetta, balet, sahnaviy janrlar, musiqali drama, komediya, talqin, ijro, “Momo yer”, “Maysaraning ishi”.

Nazorat savollari:

1. “Kolizey” teatrida sahnalashtirilgan “Farhod va Shirin” spektakli qaysi

janrga mansub?

2. Mazkur teatrda “Layli va Majnun” (1922) asari qaysi janrga taalluqli va uning o‘ziga xosligini ochib bering.
3. Toshkent rus opera teatri (1924-1928-y.y.) gastrol safarlarda bo‘lgan bo‘lgan mashhur xonandalar kimlar?
4. Ilk o‘zbek musiqali dramalari va operalarini yaratgan bastakorlar va kompozitorlar kimlar?
5. Mazkur asarlar mualliflarining O‘zbekiston musiqa madaniyatidagi tutgan o‘rnini belgilab bering
6. Ilk o‘zbek baleti muallifi va uning janr taraqqiyotidagi o‘rnini ochib bering.
7. “Bo‘ron” operasi mualliflari va asarning asosiy omillari nimada?
8. “Layli va Majnun” operasida maqomlarning o‘rni

Adabiyotlar:

1. Ян Пеккер. Узбекская опера. М., 1984.
2. История музыки Средней Азии и Казахстана. М., 1994.
3. Говорят музыканты Узбекистана: двадцать лет спустя // Музыкальная академия. 2004. №1.
4. A.Jabborov. Musiqiy drama va komediya janrlari O‘zbekiston kompozitorlarining ijodiyotida. Т., 2000.

O‘ZBEK SIMFONIZMI

Ma’lumki, *simfonizm* tushunchasi – muayyan musiqiy-ijodiy tamoyil sifatida, tom ma’nodagi (deylik Vena klassik kompozitorlari – Gaydn, Mostart ijodining so‘nggi pallasi va Betxovenning butkul ijodiga mansub) simfonik musiqa namunalaridan qariyb bir asr keyin, akademik B.V.Asafyev¹¹ tomonidan joriy etilgan. Sababi, biror kompozitor yoinki muayyan

¹¹Qarang: Игорь Глебов. Пути в будущее // Мелос. Выш.2. Спб., 1918.

kompozitorlik maktabiga aloqador o‘nlab(!) mualliflarning yuzlab(!) asarlari simfonik janrlarda bo‘lishi mumkin, ammo asl *simfonik tafakkur* bularga nasib etmasligi ham ma’lum. Shu bois, o‘zbek kuylarini simfonik orkestrga moslashtirish XIX asr oxirida boshlanib (N.S.Klenovskiy qayta ishlagan “Qaraybersam, ko‘rinmaydi” xalq qo‘shig‘i), XX asrning 20-40-yillari (V.Uspenskiy, V.Zolotaryov, S.Vasilenko, A.Kozlovskiy va b.) avj pallasiga ko‘tarilsa, va hatto ilk sonatali-simfonik turkumlar (A.Kozlovskiy – “Lola”, G.Mushel – 1-simfoniya, R.Glier – “Farg‘ona bayrami”) yaratilsa-da, simfonizmga molik dastlabki tajriba 1954-yili Ikrom Akbarovning “Shoir xotirasiga” nomli simfonik poemasida namoyon bo‘ldi.

Bu partiturada muallifning tom ma’nodagi simfonizmga xos bosh va yordamchi partiyalari, ularni Hamza (“Yasha, Sho‘ro”) va *zikr* kuylari bilan intonatsion to‘qnashuvlari va bunga asoslangan jadal *rivojlov* diqqatga sazovordir.

Ikrom Akbarovning mazkur asarida o‘zbek *qo’shiqona* simfonizmi shakllana boshlagan bo‘lsa, keyingi “Epik poema”si (1962)da – keng ko‘lamli, o‘z nomiga mansub *dostonnamo*, aniqrog‘i – asl o‘zbekona *epik* simfonizm yuzaga keldi va bu ikki yo‘nalish bo‘lajak milliy simfonizm tamoyillarini ko‘p jihatlarini belgilab berdi.

Muhimi shundaki, I.Akbarovning o‘zi mazkur tamoyillarning *birinchisi*, ya’ni keskin konfliktlarga asoslanganini – cholg‘u va orkestrga mo‘ljallangan konsertlarida rivojlantirayotgan bo‘lsa, *ikkinci*, ya’ni *epik* simfonizm an’anasini R.Tagor va Kalidasa asarlariga 70-yillarga doir “simfonik manzaralar”, “Samarqand haqida simfonik hikoyalar» va so‘nggi yillarda yozilgan 3 ta simfoniylarida yanada takomillashtirgan.

Shu bilan birga, ayni 1960-yillarda Vena klassik simfonizmi an’analariga tayangan (R.Hamroyev, T.Qurbanovlarning – ilk simfoniylari va konsertlari



kabi) partituralar ham yaratildi.

Keyingi o'n yillik (1970-yillar) o'zbek simfonizmiga avvallari o'zga janrlarda ijod qilib kelgan *o'rta* (Sayfi Jalil, N.Zokirov) va yangi navqiron (M.Tojiyev, M.Mahmudov, N.G'iyosov va b.) avlod vakillari kirib kelishi davridir. Bu jarayonni deyarli *to'la-to'kis in'ikosini* – nisbatan qisqa ijodiy yo'li davomida jahon simfonizmi, xususan, O'zbekistondagi salaflari an'analarini jami 20 ta simfoniyasida mujassam ettirgan va o'zi bir qator kashfiy topilmalarni kashf etgan kompozitor Mirsodiq Tojiyev (1944-1996) partituralarida atroflicha kuzatish mumkin.

Milliy simfoniymiz, aniqrog'i aslan *o'zbekona* simfonizmning eng zabardast namoyandalaridan biri ham shubhasiz – M.Tojiyevdir.

U kompozitorlik ijodiyotining bir qator janrlarida barakali ijod qilib, badiiy yetuk asarlar yaratgan bo'lsa-da, atigi 26 yil ichida ijod qilingan jami 20 ta(!) simfoniya (so'ngisi tugallanmay qolgan) XX asr o'zbek musiqa madaniyati yilnomasining eng yuqori cho'qqilaridandir.

Ketma-ket ikkala jumlada *eng* iborasini ishlatayotganimning boisi ham shunda. Zero, jahon musiqasi tarixida simfoniya yozgan kompozitorlarni o'nlab, yuzlab sanab o'tish mumkin. Deylik, butun dunyo tan olgan Vena klassik kompozitorlaridan Yozef Gaydn 36 yil mobaynida (so'nggi ma'lumotlarga ko'ra) – 105 ta, Amadey Mostart 23 yil ichida – 50 ga yaqin, Lyudvig Betxoven chorak asr davomida – 9 ta simfoniya yaratishgan. Biroq bulardan birinchisining atigi 1-2 ta, ikkinchisining esa eng so'nggi simfoniyalarigina akademik – musiqashunos B.Asafyev asoslab bergen yetuk va tom ma'nodagi *simfonizm* talablariga javob bera oladi. Faqat Betxovengina o'zining barcha 9 ta simfoniysi bilan jahon simfonizmi poydevorini ham, ilk baquvvat ustunlarini ham o'rnatishga tuyassar bo'lган.



Qarangki, simfonizm atamasining ramziga aylangan Betxovenning ilk simfoniysi muallif... 30 yoshini qoralab qo‘yganida yozib tugatgan ekan! Shuning uchun ham nemis kompozitoridan qolgan har bir simfoniya – olamshumul ahamiyatga molikdir.

Oradan 65 yil o‘tgach, Gustav Malerning 22 yil mobaynida yaratgan10 ta simfoniysi va nihoyat, XX asrning ikkinchi choragidan boshlab, 46 yil davomida ijod qilingan, jami 15 taga yetgan Dmitriy Shostakovich simfoniyalari tufayligina mazkur simfonizm binosining qolgan ustunlari joy-joyiga qo‘yilib, bu – yuqori professionallik in’ikosiga aylangan musiqiy kategoriya muayyan bir yaxlitlikka erishdi hamda umumbashariy, har kim ham yeta olmaydigan ijodiy cho‘qqiga ko‘tarildi. Bu cho‘qqini zabit etish uchun nainki mukammal maxsus ta’lim, izchil izlanish, balki Yaratgandan nasib etiladigan Zakovat zarurligini yuqorida keltirilgan qisqagina ma’lumotlarimizni o‘zi yaqqol ko‘rsatib turibdi.

Mirsodiq Tojiyev mazkur tamoyillarning barchasiga ega ijodkor edi. Toshkentning Yangiobod mavzesidagi mahallada 10 yil qo‘shni bo‘lib, ayrim asarlari, xususan, simfoniyalardan deyarli yarmining yaratilish jarayoni qanday kechgani, bular kasbdoshlari va keng tinglovchilar tomonidan qanday qabul qilinganligi, hatto Bolgariyada o‘tgan “O‘zbek musiqasi kunlari”da, yoki Musiqashunoslarning 3-Xalqaro Samarqand simpoziumlari konsertlarida uzoq va yaqin xorijiy mutaxassislarning olqishlar bilan tinglaganliklari guvohiman.

Ba’zi-ba’zida, D.Shostakovich yoki I.Stravinskiy, B.Bartok yoki V.Lyutoslavskiy larning partituralarini berib turishimni so‘rab chiqqanda, nisbatan yosh kompozitor o‘z simfoniyalardagi ayrim lavhalar ustida ham kunni-kun, tunni-tun demay, mashaqqatli ijodiy izlanishlarni boshidan o‘tkazganligini ko‘rganman. Aniqrog‘i, jarangdorgina ovozidagi xirgoyilariga qayta-qayta va yana qayta-qayta fortepianodan zarur sadolar topa olayotganligini o‘zim bevosita eshitganman...

Avvalgi simfoniyalardan Uchinchi, To‘rtinchi, Beshinchi va Oltinchi kabi “katta orkestrga” mo‘ljallangan va nisbatan kichik kamer orkestrlar uchun

yaratilgan Yettinchi, Sakkizinchi simfoniyalari – O‘zbekistonda, ba’zilari esa uzoq va yaqin xorijda ijobiy qabul qilindi. Bulardan 1975-yilda yozilib, “Otam xotirasiga” deb nomlangan To‘rtinchi simfoniyasi esa anchagina og‘zaki va yozma bahslarni keltirib chiqardi. Sababi, bu gal M.Tojiyev o‘z padaribuzrukrori xotirasi bilan bir qatorda, Ikkinchi jahon urushi qurbanlarini ham eslab o‘tish maqsadida, D.Shostakovich qalamiga mansub mashhur Yettinchi (“Leningradnoma”, 1941-y.) simfoniya tamoyillaridan – “bosqinchilar lavhasi”ga bilvosita, ba’zan bevosita murojaat qilgan. Albatta, u yoki bu mavzuni ifodalashda salaflar tajribasidan foydalanish badiiy ijodda man etilmaydi. Bunga o‘nlab misollar keltirish mumkin. Qolaversa, Shostakovichning o‘zi ham, mazkur lavhada fransuz kompozitori Moris Ravelning “Bolero” (1928-y.) nomli simfonik asarida kichik barabanlarning *izchil* yakkanavozligi an’anasiga bilvosita tayangan. Demak, To‘rtinchi simfoniyada ham Tojiyev ana shu yo‘nalishda izlanganida ma’qulroq bo‘lur edi. 1972-yili yaratilgan Uchinchi simfoniyasi kasbdoshlar tomonidan nihoyatda yuqori baholangan. Zeroki, ayni shu partiturada M.Tojiyev ilk bor “*yevropacha*” andozalardan anchagina uzoqlashib, dastlabki ijodiy va muhimi ijobiy tarzda haqiqatdan ham o‘zbekona simfoniya kashf etgan.


Buni 1-qism (Yevropa uchun odatan bo‘lib kelgan) “Sonata allegrosi” shaklida emas, balki tubdan yangicha, D.Shostakovichning Sakkizinchi simfoniyasidagi kabi – “Sonata adajiosi-allegrosi” ko‘rinishida, ayni ana shu birgina qism ekspozitsiyasida kompozitor maqom (“Segoh”) va katta ashula xususiyatlarini mohirona uyg‘unlashtira olganligi, 2-qismda esa yana bir mumtoz merosimiz – doston ashula yo‘llaridan “Naylarman” (“O‘g‘lima o‘xshaydi ovozing sani”) asosida shiddathli (tokkatasimon), tom ma’nodagi cholg‘u polotno yaratganligida yaqqol ko‘rish mumkin.

Albbata, bu asarda va yosh kompozitor qalamiga mansub ayrim boshqa partituralarda, undan avval simfonik musiqa olamiga kirib kelgan, XX asr o‘zbek simfonizmi *karvonboshisi* Ikrom Akbarov ta’sirini sezish mumkin. Biroq yangi avlod vakili bo‘laturib va tabiatan teran *intuitiv* ijodiy tafakkur

sohibi bo‘lgan, M.Tojiyev mavjud an’analarga hurmat bilan yondashsa-da, I.Stravinskiy ta’biri ila aytganda o‘z partituralarida – o‘z uslubi, o‘z tafakkuri, o‘z ijodiy qiyofasini doimo kuzatib turgan va esda tutgan.

Kompozitorning keyingi partituralari, ayniqsa, To‘qqizinchisi va O‘n birinchi simfoniyalari o‘zbek simfonizmining yangicha, ma’lum jihatlari bilan *umumsharqona* ahamiyatga molik tamoyillarini belgilab berdi. Gap shundaki, musiqiy meros sohasida bizga anchagina yaqin – Ozarbayjonda Uzeir Hojibekov, Fikrat Amirov va Niyoziylarning qator asarlarida mahalliy mug‘omlar bilan bog‘liq tubdan yangicha *mug‘om simfonizmi* yuzaga kelgan va u ko‘p mamlakatlar – Armaniston, Turkiya, Eron kompozitorlik ijodiyotiga ijobiy ta’sir ko‘rsatib kelmoqda.

Mirsodiq Tojiyevning Uchinchi simfoniyasida kashf etilgan o‘zbekona *maqomlarni simfonizmlash* ayni ana shu To‘qqizinchisi hamda O‘n birinchi simfoniyalarida yanada kengaydi, o‘zgacha ijodiy natijalar berdi. Kompozitorning bu galgi har ikkala asarida *faqat* muayyan maqom yo‘llariga izchil tayanganligi ayrim musiqashunoslarimiz tomonidan simfoniya (aniqrog‘i Yevropa simfoniyasi)dan “chetlashish” va hatto “syuita”simon yo‘lga “o‘tish”



deya baholandi, turli anjumanlardagi chiqishlarda, Toshkentda va Moskvada chop etiladigan jurnallar sahifalarida munozaralarga sabab bo‘ldi.

Biz o‘sha bahslarda ayni o‘sha jurnallardagi («Пора интенсивного возмужания» // Советская музыка. 1981. №7) kabi maqolalarimizda bu simfoniyalarida ham, M.Tojiyev, avvalgi izlanishlarini davom ettirayotganini, maqomlar zamirida Yevropadan o‘zgacha simfoniya turini kashf etayotganligini qayta-qayta ta’kidlagan edik. Mana yillar o‘tib, keyingi davrda S.Jalil, M.Mahmudov, M.Bafoyev, N.G‘iyosovlarning talaygina partituralarida, qo‘shni Tojikiston kompozitorlaridan F.Bahor, T.Shohidiy, Yu.Mamedovlarning ijodida ham M.Tojiyev tajribalari o‘z samarasini

kashf etayotganligini qayta-qayta ta’kidlagan edik. Mana yillar o‘tib, keyingi davrda S.Jalil, M.Mahmudov, M.Bafoyev, N.G‘iyosovlarning talaygina partituralarida, qo‘shni Tojikiston kompozitorlaridan F.Bahor, T.Shohidiy, Yu.Mamedovlarning ijodida ham M.Tojiyev tajribalari o‘z samarasini

bermoqda.

Eslatib o‘tish mumkinki, 1979 yili yaratilgan To‘qqizinchi simfoniyasida M.Tojiev Shashmaqom tarkibidagi “Dugoh” maqomining “Mo‘g‘ulchai Dugoh” (partituradagi 1-qism), “Soqynomai Mo‘g‘ulchai Dugoh” (2-qism), “Saraxbori Dugoh” (3-qism) va bularning umumlashmasi (4-qism) kabi *ashula* yo‘llarini tom ma’nodagi *cholg‘u* musiqa tiliga¹² ko‘chirgan.


Oradan to‘rt yil o‘tgach, O‘n birinchi simfoniyasida kompozitor yana maqom uslubidagi boqiy kuyimiz “Munojot” va uni turkumlantiruvchi “Savti Munojot”, “Qashqarchai Munojot”, hamda “Ufari Munojot”lardan unumli foydalaniб, keng ko‘lamli, bir necha bo‘limlardan iborat yaxlit partitura yaratadi.

Yillar o‘tib, M.Tojiyev qoldirgan asarlar va avvalambor keyingi simfoniyalariga nazar tashlar ekanmiz, ijodkor ayrim – “Segoh”, “Chorgoh”, “Navo” kabi mumtoz kuylarimiz hamda ular bilan bog‘liq xalqimiz orasida keng tarqalgan nomdosh turkumlarga qayta-qayta murojaat qilib, bularni eng – zamonaviy kompozitorlik ijodiyoti tamoyillari bilan mantiqan “payvandlashga” izchil intilganligini ko‘ramiz.

Demak, butun ijodi mobaynida, xususan, 20 ta simfoniyasidan so‘nggi 5 tasini Mustaqillik yillarda yaratib, Mirsodiq Tojiyev, ummondek musiqa merosimizning maqom, katta ashula, doston kabi qatlamlarini – Yevropa, kengroq ma’noda butkul G‘arb kompozitorlik ijodiyotining eng yuqori pallasi bo‘lmish *simfonizm* bilan tengma-teng rivojlantirish, uyg‘unlashtirish mumkinligini amalda isbotlagan.

¹² Qarangki, yana Tangri neemat qilgan ijodiy intuitsiya tufayli, M.Tojiyev – 1,5 ming yillik milliy bastakorlik ijodiyotimizning asosiy (boshlang‘ich) tamoyillaridan bo‘lmish – *cholg‘u* kuylarga tayanib – ashula yo‘llarini yaratish va buning aksi – ashulalar zaminida – sof chog‘u asarlar kashf etish an’anasiga murojaat qilgan ko‘rinadi.

Mavzu rejasining diagramma shaklidagi ko‘rinishi



Tayanch so‘zlar:

Qo‘shiqona simfonizm, epik simfonizm, mug‘om simfonizmi, Mirsodiq Tojiyev, maqom yo‘llari, tajriba, “Munojot” turkumi, payvandlash, musiqiy meros.

Nazorat savollari:

1. *Simfonizm* tushunchasi – muayyan musiqiy-ijodiy tamoyil sifatida.
2. Simfonik tafakkur tushunchasining mazmun-mohiyatini ochib bering.
3. O'zbek simfonizmiga molik dastlabki tajribalar qanday amalga oshirilgan?

4. O‘zbek simfonizmi *karvonboshisi* Ikrom Akbarovning mazkur janrdagi yutuqlari.
5. Mirsodiq Tojiyevning simfonik ijodini olib bering.
6. Mirsodiq Tojiyevning Uchinchi simfoniyasida kashf etilgan o‘zbekona maqomlarni simfonizmlash qanday kechgan?
7. M.Tojiyev simfoniyalarining o‘rni va mavqeи.
8. O‘zbek simfonizm maktabi vakillari kimlar?

Adabiyotlar:

1. Гафурбеков Т.Б. Фолклорные истоки узбекского профессионального музыкального творчества. Т., «Ўқитувчи» 1984;
2. Гафурбеков Т.Б. «Творческие ресурсы национальной монодии и их преломление в узбекской советской музыке». Т., «Фан», 1987.
3. Янов-Яновская Н.С. «Узбекская музыка и XX век». Т., 2007.

O‘ZBEK BASTAKORLIK IJODIYOTI: O‘TMISH VA HOZIRGI ZAMON

Kirib kelgan XXI asr nainki yangi yuz yillik, balki butun insoniyat umid bilan kutayotgan navbatdagi mingyillik, ya’ni tarixan ulkan bir dovonni boshlab berajakligi, biz – badiiy tafakkur bilimdonlaridan uzoq va yaqin o‘tmish san’atimizga yana bir bor xolisona ko‘z tashlab, undagi odimlarni qaytadan ko‘rib chiqishimizni, u yoki bu davrda yaratilgan asarlarni boshqatdan mezonlashimizni taqozo etmoqda.

Sir emas, so‘nggi deyarli 150 yil (Markaziy Osiyoni Rossiya bosib olgan davr) mobaynida, ayniqsa, yaqin 75-80-yillar ichida musiqa san’atimizdagi mavjud to‘rt qatlam – folklor, mumtoz musiqamiz, bastakorlar ijodi va kompozitorlar asarlaridan faqat oxirisiga urg‘u berib kelindi.

Oqibatda, ota-bobolarimiz nafasi, butkul fikru zikri, donishmandlarcha mushohadalarini birma-bir mujassam eta olgan xalq kuylari, mualliflari atayin

va hanuz “muallifsiz” deya sanalayotgan o‘nlab, yuzlab asarlar, qariyb 15 asr (!) yangrab kelayotgan buyuk islom madaniyati tengdoshi bo‘lgan bastakorlarimiz merosi bir chekkaga surib qo‘yildi.

Ming taassufki, asrlar dovo ni sinovidan omon qolib bizgacha yetib kelgan sehrgo‘y cholg‘u va ashula yo‘llari – bir necha o‘nyilliklar mobaynida sun’iy ravishda singdirila boshlangan yetti iqlim naridagi ko‘povozli musiqa andozalariga o‘rin bo‘shatishga majbur bo‘ldi. Bu ham yetmagandek, mazkur to‘rt qatlamning uchtasi so‘nggisi, ya’ni kompozitorlik ijodiyotiga tobe bo‘lib, buning tiganmas “xomashyo”siga aylandi.

Eng achinarli tomoni shundaki, mana yigirma birinchi asrga ham yetib kelibmizu, ana shu qatlamlarning gultoji bo‘lmish monodiyazamin mualliflarning hatto kasbiga, hayrotomuz ijodiga yarasha mantiqiy atamalar topilganicha yo‘q. Buning o‘rniga osongina yo‘l tutib, musiqashunos olimalarimiz “melodiyachi-kompozitor” (O‘zbekiston, Tojikiston), “kyuyshi-kompozitor” (Qozog‘iston) va shularga o‘xhash yevropacha yasama terminlarni qo‘llab kelishmoqda.

Fikrimizcha, avvalo, uzoq o‘tmish ijodiyoti va amaliyotida tan olingan *bastakor* (O‘zbekiston, Tojikiston, Ozarbayjon, Turkiya, Eron), *mulaxxin* (Misr va boshqa arab mamlakatlari), *oqin* (Qozog‘iston, Qirg‘iziston), *baxshi* (O‘zbekiston, Turkmaniston, Qoraqalpog‘iston), *oshiq* (Ozarbayjon, Turkiya) singari biri biridan aniq xalqchil atamalar tiklanishi zarur. Qarangki, bularning har biri u yoki bu millat madaniyatining muayyan, ba’zan *o‘zigagina* xos ijodiy tafakkur belgilarini ochib berayotganday jilvalanadi.

Shu bilan birga, mazkur ijod yo‘nalishlari nihoyatda qamrovli – millionlab emas, balki milliardlab sanaladigan xalqlar madaniyatini o‘zida mujassam etgan holda taraqqiy topib, XX asrga kelganda yevropacha tafakkurdagi kompozitorlar ijodi bilan “bellashishiga” to‘g‘ri keldi. Ochig‘ini aytganda, kurash oson ko‘chmadi, yutuqlar qatori mag‘lubliklar ham bo‘ldi. Lekin o‘zaro ijobiy va haqiqatan ijodiy ta’sirlarni bu jarayonda izchil uchratish mumkinki, buning samarasini har ikkala, ya’ni monodiyazamin va ko‘povozli

tafakkurni asrimizdag'i o'zbek (va o'zga) musiqa ijodiyoti timsolida kuzata borish qiyin emasdir. E'tiborli tarafi shundaki, birlamchi (monodik) ijod an'analarini keyingi kompozitorlar musiqasiga mazmun va musiqiy mavzu (tematik), janr va shakl, bayon va taraqqiy uslublari, boshqa ifoda yo'naliш vositalari jihatdan asos, izlanishlar jarayonida har bir muallif uchun "axilles tayanchi" vazifasini bajaradi. Xulosa qilib aytganda, kompozitorlar ijodida birorta janr yo'qki, O'zbekistonda uning singdirilishi musiqiy folklor, an'anaviy mumtoz musiqa yoki uzoq va yaqin o'tmish bastakorlari yaratgan kuylarsiz tasavvur qilish amri maholdir.

Tabiiy savol tug'iladi: buning aksi, ya'ni ko'povozli tafakkur monodiyazamin ijodga ta'sir ko'rsata olganmi? Bu ta'sir aslida qay darajada bo'lган? Ushbu oddiy tuyulayotgan savollarga aniq javob topish ham oson ish emas, zero, aynan shu asnoda kompozitorlardan farqli o'laroq musiqashunoslar uchun bastakorlik ijodini kuzatish, tahlil qilish va xulosalar keltirish birmuncha qiyinroq ko'rindi.

Agar kompozitor asarida u yoki bu kuydan foydalanganligi yaqqol eshitilib, ba'zan zamonaviy uslub, eng so'nggi yo'naliшlar va ijodiy texnikalardan iborat "baland-past to'lqinlar" qa'ridagi yalt etib turgan "orolcha"dek e'tiroflansa, bastakor yaratgan cholg'u va ashula yo'llarida bunday aniqlik deyarli uchramaydi. Shu bois, birlamchi tezis tariqasida yevropacha kompozitorlik san'atidan – o'zbek bastakorlari ijodiga ayrim (syuita yoki bo'lmasa marsh kabi) janriy yo'naliшlar, polifonik uslub alomatlari, tembral bezaklar yuqqan. XX asr o'zbek musiqasiga salmoqli hissa qo'shgan bastakorlarimizning aksariyati dastavval sozanda sifatida tanilganligidan so'ngina ijod sohasida tan olinganlar. Shu sababli, ma'lum xonandalarga taalluqli jo'rsadolar, ayniqsa, ifodalash imkonlari, yetuk badiiy kayfiyatlarni gavdalantirish kuchiga ega son-sanoqsiz millat cholg'ulariga mo'ljalangan yakka (solo) va turlicha ansambllar uchun ijod etilgan asarlar yaratish jarayonida *tembral polifoniya* an'analariga tayanilganini ko'ramiz.

Hozirgi kunga kelib, borgan sari odat tusiga kirayotgan mazkur yo'naliш

shakllanishiga, albatta, o‘zbek cholg‘ulari va cholg‘u musiqa merosimizdan o‘rin olgan, hanuz “primitiv ko‘povozlik” yoki “monodik ko‘povozlik” deb kelinayotgan mahalliy an’analar ham muhim rol o‘ynagan, albatta (torli sozlar sadosidagi birikmalar).

Milliy bastakorlik san’atimizda XX asrning o‘rtalarida yuzaga kela boshlagan bu yangi yo‘nalish, avvalo, atoqli sozanda (changchi, dutorch) va nozikta’b bastakor Faxriddin Sodiqov nomi bilan bog‘liq. Uning “O‘zbekcha vals” singari cholg‘u asarlari, ayrim qo‘sish va ashulalarida diqqat-e’tiborni o‘ziga darhol tortadigan bir mo‘jiza – har bir sozning o‘zigagina xos sado bezagini qayd etish, uni o‘zga sozlar sadolari majmuida betakror darajada ko‘rsatish va shu yo‘l bilan ovozlar majmuiga nozik bezaklar ato etish *an’anasi* paydo bo‘ldi. Bu an’ana, avvalo, F.Sodiqovning o‘zi va Komiljon Jabborov, Nabijon Hasanov, Muhammadjon Mirzayev kabi tengdosh bastakorlar izlanishlarining samarasidir. Lekin izlanuvchan bastakor Toshkent davlat konservatoriyaning Sharq musiqasi kafedrasida yosh sozandalarga aynan ansambl ijrochiligidan saboqlar berishi jarayonida mazkur *tembral polifoniya* alomatlari maqomlar talqiniga, ayniqsa, cholg‘u yo‘llariga izchil singdirila boshlandi.

Natijada Abduhoshim Ismoilov, O‘lmas Rasulov, keyinroq Ahmadjon Dadayevga o‘xhash mohir g‘ijjakchi, bo‘lajak bastakorlar ana shunday – tom ma’nodagi ijodiy-amaliy, ko‘p jihatdan ibratlil saboqlar tufayli ijro sirlarigina emas, monodik tafakkurning yangicha yo‘nalishlaridan ham boxabar bo‘lishdi.



Tabiiyki, yangi avlod ijodkorlari ustoz-bastakor tajribasiga tayangan holda uni boyitish va kengaytirishga astoydil intildilar. Bugunga kelib, deyarli yarim asr avval shakllana boshlagan an’ana – *tembral polifonik bayon* va uning taraqqiy yo‘llari borgan sari takomillashib bormoqda.

Lekin ming afsuski, na O‘zbekiston va na Markaziy Osiyo musiqashunosligi, na xorijiy Sharq musiqa ilmi mazkur, muayyan bir *ijodiy fenomen* darajasiga ko‘tarilgan monodik tafakkur namunalarini hatto birlamchi tahlildan o‘tkazganicha yo‘q.

Shu bois, biz 1970-yillardan e’tiboran, avvalo, ana shu fenomenga aloqador tabiiy atama topishga intildik. Hozirgi paytga qadar yo‘l-yo‘lakay istifoda etilgan birorta istiloh yoki ibora bizni qoniqtira olmadi. Shunday ekan, fenomen mohiyati ma’lum darajada yevropacha polifonik yo‘nalishga, ikkinchi tomondan, monodik tafakkurning asl ko‘rinishlariga borib taqalishini inobatga olib, uni *polimonodiya* deb atashni o‘rinli ko‘rdik (N.Yanov-Yanovskaya “monodik ko‘p ovozlik” iborasini taklif etgan, biroq bunda ayni yevropacha yondashish yaqqol ko‘rinadi). Mavjud soha ensiklopediyalari, ensiklopedik va o‘zga lug‘atlarda yunoncha *poli* – *ko‘plik ma’nosiga* tayanuvchi bir qator qo‘shma iboralar, atamalar talayginaligi va bular nashrdan-nashrga ortib borayotganligi ma’lum bo‘ldi. Deylik, 1966-yili chop etilgan “Энциклопедический музыкальный словарь”ning ikkinchi, tuzatilgan va to‘ldirilgan nashrida mazkur asnoda 7 ta (poligimniya, polimetriya, poliritmiya, poliserialnost, politematizm, politonalnost va polifoniya) atama berilgan bo‘lsa, 1978-yilgi “Музыкальная энциклопедия”ning VI jildida bular qatori 12 taga (poliakkord, poligarmoniya, polimodalnost, polistilistika va polifunksionalnost kabilar hisobiga) kengaytirilgan.



Yana bir nufuzli nashr – Vengriya Fanlar Akademiyasi tayyorlagan

“Семиязычный словарь музыкальных терминов” (1978)да esa, mavjud atamalar – polixoral, polistrofa, polissoir, politematika, politekst kabilar bilan to‘ldirilgan.


O‘zbekona (va umuman Sharqona) *polimonodiyaning* yorqin, ijodan ibratli misoli tariqasida Abduhoshim Ismoilovning g‘ijjak va an’anaviy o‘zbek sozlari ansambli uchun yaratgan “Holim so‘rma” (“Oybuloq” to‘plamiga qaralsin) nomli asari e’tiborga molikdir. Unda, xususan, eng mukammal milliy sozlarimizdan birining texnik imkoniyatlari emas, balki o‘ta nozik ifoda vositalari, muayyan mazmunni to‘laqonli ifodalashdan unumli foydalanilgan. Natijada lirik-dramatik muqaddimada va tantanavor asosiy qismda badiiy teran obrazlar silsilasi yuzaga kelgan.

Biroz o‘zgacharoq, ma’lum darajada xonaki (kamer)roq *polimonodiya* ko‘rinishini Ne’matjon Qulabdullayev ijodiga mansub – g‘ijjak va rubob qo‘snavozligiga mo‘ljallangan “O‘ylamang” nomli asarda kuzatish mumkin.

Qizig‘i shundaki, *polimonodiya* xususiyatlari bir qator G‘arb (O.Messian va uning shogirdi L.Nono), arman (Komitas, S.Agadjanyan), ozar (F.Amirov, N.Aliverdibekov) va tabiiyki, o‘zbek (M.Burhonov, D.Zokirov, Sayfi Jalil, M.Bafoyev) kompozitorlari ijodidan ham o‘rin olgan.

Ishonchim komilki, *polimonodiyaning* juda ko‘p ibratomuz namunalarini bizga tildosh, madaniyatdosh uzoq va yaqin xalqlar musiqa ijodiyotida ham uchratish mumkin.

Mavzu rejasining diagramma shaklidagi ko‘rinishi



Tayanch so‘zlar:

Folklor, mumtoz musiqa, bastakorlar, baxshi, oshiq, bellashish, sozanda, meros, Abduhoshim Ismoilov, O‘lmas Rasulov, polimonodiya.

Nazorat savollari:

1. Bastakorlik ijodiyotining mazmun mohiyatini ochib bering.
2. Monodik tafakkur tushunchasini ta’riflab bering.
3. Milliy bastakorlik san’atining shakllanishi.
4. O‘zbek bastakorlik san’atining yorqin vakillari kimlar?
5. Faxriddin Sodiqov, Komiljon Jabborov, Nabijon Hasanov,

Muhammadjon Mirzayevlarning ijodiy merosi.

6. XX asr o‘zbek musiqasiga salmoqli hissa qo‘shtgan bastakorlar ijodiy faoliyatini ochib bering.

7. *Polimonodiya* xususiyatlarini ta’riflang.

8. O‘zbekona va, umuman, Sharqona *polimonodiyaning* yorqin va ibratli misollarini keltiring.

Adabiyotlar:

1. Гафурбеков Т.Б. Фольклорные источники узбекского профессионального музыкального творчества. Т., «Ўқитувчи» 1984.

2. Гафурбеков Т. Б. Творческие ресурсы национальной монодии и их преломление в узбекской советской музыке. Т.: «Фан», 1987.

3. G‘ofurbekov T. Polimonodiya – o‘zbek bastakorligi mahsuli // Музыка тюркского мира. Материалы Первого Международного Симпозиума 3-8 мая 1994. Алматы: «Dayk-Press», 2009.

4. Гафурбеков Т.Б. Полимонодия – феномен творчества узбекских бастакоров // Музыкальное искусство: Наука и образование. Сб. Научных трудов. Астана: КазНАМ, 2006.

O‘ZBEKISTON MUSIQA ILMI

Uzoq va yaqin o‘tmishning bu sohadagi boy an’analari: IX-XIX asrlarda Abu Nasr Forobiydan – Vojid Alixon Hindistoniylargacha mansub musiqa risolalari va boshqa maxsus manbalarda shakllangan uslub, tarixiy va nazariy tahlil, etik, estetik qarashlar va hozirgi zamon O‘zbekiston musiqashunosligi. Bulardan unumli foydalanish yo‘llari. Shu bilan birga, bizgacha muayyan yozma tarzda XIV asr (Xorazmiyning “Muhabbatnoma”si)dan tugal tus olib, XX asr boshlari (Xislatning “Armug‘oni Xislat”, “Tuhfai Xislat”, “Sovg‘oti Xislat”lari)gacha jadallahib kelgan *bayoz* hamda *noma* kabi umumijodiy (ayniqsa adabiy) manbalarning – musiqa ilmiga bilvosita, ba’zan esa bevosita

aloqadorligini tahlillab berish zarurati – davr talabi ekanligini anglash darkor.

Asr boshlarida “Turkiston viloyatining gazetasi” (1870-1917-yy.), “Taraqqiy” (1906), “Sadoyi Turkiston” (1914-1915), “Samarqand” (1913), “Sadoi Farg‘ona” (1914), “Turk eli”, “Turon”, “Ulug‘ Turkiston”, “Hurriyat” (barchasi 1917-yildan chiqa boshlagan) gazetalar, “Oyina” (1913-1915) kabi ilk jurnallarda Furqat (1859-1909), Mahmudxo‘ja Behbudiy (1875-1919), Munavvarqori Abdurashidxonov (1878-1913), Abdulla Avloniy (1878-1934), Hamza Hakimzoda Niyoziy (1889-1929)larning ma’rifat, madaniyat va san’atga doir maqolalarining tarixiy, badiiy va ilmiy qiymati¹³.



1920-yillardan e’tiboran “Maorif va o‘qitg‘uvchi”, “Alanga” singari jurnallarda Abdulla Qodiriy (1884-1938), G‘ulom Zafariy (1889-1937), Abdulhamid Cho‘lpon (1897-1938), Abdurauf Fitrat (1884-1938)larning bevosita musiqa san’ati – qaysi yo‘ldan borishi, qandayin “yangi o‘zbek musiqasi”ni ko‘zlash zarurligi, folklor, o‘sha davr ta’birida “klassik musiqa”, Sharq-G‘arb an’analari va h.k. masalalarga bag‘ishlangan o‘nlab chiqishlari bo‘lgan. Bular kasban musiqashunos bo‘lishmasa-da, maqolalarida yetuk professionallik, teranlik, nainki o‘zbek, qo‘sni xalqlar va butun Sharq musiqasidan boxabarlik, balki Yevropa kompozitorlik ijodiyotidan aniq ma’lumotlarga ega ekanliklari ko‘zga tashlanadi. Ketma-ketiga nashrdan chiqqan Mulla Bekjon Rahmon o‘g‘li va Muhammad Yusuf Devonzoda (Matyusuf Xarratov)larning “Xorazm musiqiy tarixchasi” (1925, yangi nashri – 1998) hamda Abdurauf Fitratning “O‘zbek klassik musiqasi va uning tarixi” (1927, yangi nashri – 1993) – ilk monografik kitoblar edi. Bularda ham mualliflarning zukkoligi, zamon zayli, zamin talablari, o‘sha murakkab davr taqozo etgan va asl milliy dolzarblik, hozirjavoblik izchil kuzatiladi.

¹³ Mazkur nashrlar tafsiloti Ziyo Saidning “Tanlangan asarlar”i (T., 1974)da keng o‘rin egallagan.

O‘zbekistonda musiqashunoslikning asosiy¹⁴ yo‘nalish(tarmoqlari).


Tarixiy musiqashunoslik dastavval shakllanishi tufayli, O‘zbekistonda ham ilk yirik to‘plam va monogarafik nashrlar aynan shu sohaga taaluqlidir. Bularning aksariyati Ona zaminimizga Yevropa kompozitorlik ijodining kiritilishi tarixini yoritib, davrma-davr kuzatishga yo‘naltirilgan. Odat tusini olgan an’ana rus ilg‘or musiqasi ta’sirini ketma-ket aniqlash (T.S.Vizgo), u yoki bu janr joriy etilishida ko‘rish (Ya.B.Pekker, I.N.Karellova va V.I.Shapkunova, N.S.Yanov-Yanovskaya)da namoyon bo‘ladi.

O‘zbekiston musiqashunosligi, asosan, Yevropa ilmi tamoyillari negizida rivoj topib, uning tarixiy va nazariy yo‘nalishlari shakllangan (“Пути развития узбекской музыки” to‘plami, 1946). Tarixiy musiqashunoslik ham ko‘proq O‘zbekiston musiqa madaniyatiga Yevropa kompozitorlik ijodiyotining kirib kelishi (S.Veksler, T.Vizgo), opera (Ya.Pekker, A.Korsakova), balet (V.Shapkunova), simfoniya (N.Yanov-Yanovskaya, I.Vizgo-Ivanova), kamer musiqa (V.Golovina, T.Golovyans), ommaviy qo‘sish va romans (I.Karellova, S.Vohidov) kabi ko‘povozli musiqa janrlarining rivoji “O‘zbek sovet musiqasi tarixi”, 1-3-j., 1972-91), shuningdek, ayrim ijodkorlar faoliyati (Ya.Pekkerning “V.Uspenskiy” va “G.Mushel”, V.Plungyanning “S.Yudakov”, “T.G‘ofurbekov” (I.Galushenko bilan birgalikda), A.Jabborovning “M.Leviyev”, I.Akbarovning “T.Jalilov” va M.Ahmedovning “Yu.Rajabiy”, “Xoji Abdulaziz Abdurasulov” kabi ilk kitoblari va b.) yaratildi. Nazariy musiqashunoslikda o‘zbek musiqasining lad va garmoniya (Yu.Kon, S.Zakrjevskaya, Yu.Kats, S.Galitskaya), polifoniya (A.Koralskiy, F.Muxtorova), ritm (T.Solomonova, Yu.Plaxov), garmoniya (O.Azimova) va b. ifoda vositalarining o‘ziga xosligini aniqlash bilan birga bulardan kompozitorlik ijodida foydalanan masalasi ham o‘rganildi.

Musiqiy sharqshunoslik sohasida I.Rajabov, O.Matyoqbov, A.Nazarov, A.Jumayev, D.Rashidova, O.Malkeyeva (O‘rta asr Sharq musiqa ilmi),

¹⁴Qo‘sishimcha tarzda konservatoriymiz va San’atshunoslik ilmiy-tadqiqot institutimiz olimlarining ilmiy to‘plamlari, xususan, “Музикальная критика в Узбекистане” (1984), “Musika ijodiyoti masalalari”. 2-kitob (2002), “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi»ning 6-jildi (2003) va “Музикальная Академия” jurnalining 2004-yil 1-soniga qaralsin.


T.G‘ofurbekov (bastakorlik nazariyasi va tarixi), F.Karomatov, R.Abdullayev (o‘zbek musiqa folklori), R.Yunusov, O.Ibrohimov (maqomot san’ati)lar tadqiqotlar yaratishgan.



Yu.G.Kon



I.R.Rajabov



F.M.Karomatov

Mustaqillik davri O‘zbekiston musiqashunosligida turli sohalar rivoj topmoqda. Musiqiy folklorshunoslik yo‘nalishida F.Karomatov, R.Abdullayev (marosim musiqasi), O.Ibrohimov (o‘zbek xalq musiqa ijodi), J.Rasultoyev (milliy musiqa cholg‘ulari), A.Hoshimov (uygur an'anaviy musiqasi) va b.; musiqiy sharqshunoslik yo‘nalishida A.Nazarov (Forobiy va Ibn Sino musiqa qarashlari), A.Jumayev (Sharq musiqa ilmi), R.Yunusov, O.Matyoqubov, O.Ibrohimov (maqomot san’ati tarixi va nazariyasi, bastakorlar ijodi) va b.; musiqa nazariyasi sohasida O.Azimova (garmoniya va kompozitsiya masalalari); musiqa tarixi mavzularida A.Jabborov (musiqali drama va komediya janrlari), N.Yanov-Yanovskaya, T.G‘ofurbekov (G‘arb va Sharq musiqa munosabatlari), V.Plungyan, I.Galushenko, D.Murodova (kompozitorlar ijodi) va b. ijod qilmoqda.

Tarixan retrospektiv (T.B.G‘ofurbekov tomonidan) o‘rganilib kelinayotgan jarayonlardan biri – meros va zamonaviy ijod masalasidir. Shu bilan birga, bu yo‘nalishdagi eng katta kamchilik – hanuz o‘zbek musiqa tarixini qadim zamonlardan – XX asrgacha kechgan yo‘lini tadqiq etilmaganlidir.

Musiqiylar sharqshunosligimiz ma’lum yutuqlarga erishgan bo‘lsa-da,

merosimizdagи aksariyat shakl va janrlar tarixi, nazariyasi to‘la-to‘kis yaratilmagan.

Maqomlar tarixi I.Rajabov tadqiqotlari bois bundan istisnodir. Bu yo‘nalishdagi keyingi tadqiqotlarning ayrimlari (A.Nazarov va O.Ibrohimovlarning nomzodlik va doktorlik, O.Matyoqubov, R.Yunusovlarning nomzodilik dissertatsiyalari)da manbashunos va maqomshunos allomaning g‘oyalari rivojlanib, birmuncha kengayib bormoqda.

Nazariy musiqashunoslik (1960-yillarda) dastlab ma’lum yutuqlarni qo‘lga (Yu.G.Kon, B.A.Gulisashvili) kiritgan bo‘lsa-da, keyinchalik ana shularni qayta-qayta (S.P.Galistkaya, Yu.N.Plaxov) in’ikoslab tasdiqlashga yoki ayrim abstrakt g‘oya va kuzatuvlar isbotiga (Yu.V.Kats) yo‘nalib ketdi. Faqat 1980-yillardan e’tiboran bu sohaga (O.N.Azimova, F.Sh.Muxtorova, S.X.Mirxo‘jayeva kabi) yangi avlod vakillari birmuncha o‘zga yo‘nalishlarni kiritishdi.



F.M.Yanov-Yanovskiy va N.S.Yanov-Yanovskaya

Har ikkala mazkur sohalar uslubiga tayanuvchi musiqiy folklorshunoslik (V.M.Belyayev, F.M.Karomatov, keyinchalik, R.Abdullayev, O.Bekov) o‘zbek

va ayrim qo'shni xalqlar merosini toplash, tizimlash va nashr ettirishda (Yu.Rajabiy, M.Yusupov, I.Akbarov) birmuncha ijobiy natijalarga erishgan.

O'zbek musiqashunosligining eng salmoqli va o'ziga xos yutuqlari 12 jildli O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi sahifalaridagi G'arbiy va Sharqiy Yevropa, Amerika va butkul jahon musiqasi, Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlari hamda milliy madaniyatimizga oid yuzlab maqolalarda namoyon bo'lgan.


Musiqashunoslik ixtisosligi bo'yicha mutaxassislar hozirgi kunda O'zbekiston davlat konservatoriysi (bakalavriat, magistratura va doktorantura) hamda San'atshunoslik instituti (doktorantura)da tayyorlanmoqda. 5 fan doktori, 20 ga yaqin fan nomzodlari, bir qancha yosh musiqashunoslар tadqiqot ishlari olib borishmoqda.

Musiqashunoslikning barcha yo'naliishlari nainki O'zbekistonda, balki butkul Markaziy Osiyoda rivojlanishi jarayonida San'atshunoslik instituti va O'zbekiston davlat konservatoriysi huzuridagi Ixtisoslashgan kengashlar faoliyati.

Sohaning zamon zayli (2018 yil)dan kelib chiqadigan kelajak yo'naliishlari quyidagilardan iborat:

- o'zbek musiqa folklori va mumtoz kasbiy merosining xorijiy G'arb va Sharq mualliflari ijodidagi o'rmini aniqlash;
- O'zbek musiqasi retrospektiv tarixini yaratish;
- XX asr O'zbekiston musiqa madaniyatining jahon musiqasi tarkibidagi mavqeini o'rghanish; mahalliy bastakorlik ijodiyoti tarixini yaratish;
- milliy musiqiy estetikasi, etika va psixologiyasini xalqimiz mentalitetiga bog'liq holda tadqiq etish;
- o'rta va oliy ta'lim tizimi uchun yangi davr darsliklarini yaratish.

Mavzu rejasining diagramma shaklidagi ko‘rinishi



Tayanch so‘zlar:

Abu Nasr Forobi, Ibn Sino, Darvishali Changiy, o‘zbek musiqashunosligi, nazariy va tarixiy musiqashunoslilik, musiqiy sharqshunoslilik, maqomlar tarixi, I.Rajabov, Yu.Kon, F.Karomatov, Milliy ensiklopediya, Ixtisoslashgan kengashlar.

Nazorat savollari:

1. Abu Nasr Forobiying musiqa risolasi ta’rifini bering.
2. Musiqiy risolalarda shakllangan uslub, tarixiy va nazariy tahlil, etik, estetik qarashlarning o‘rni va ahamiyatini ochib bering.
3. O‘zbek musiqashunoslilik maktabi shakllanishi.

4. Musiqiy folklorshunoslik yo‘nalishi vakillari.
5. Tarixiy musiqashunoslik yutuqlari.
6. Nazariy musiqashunoslik namoyandalari.
7. Musiqiy sharqshunoslik yutuqlari.

Adabiyotlar:

1. Mulla Bekjon Rahmon o‘g‘li, Muhammad Yusuf Devonzoda. Xorazm musiqiy tarixchasi. M., 1925. (eski o‘zbek yozuvi). 2-nashri, 1998.
2. Fitrat A. O‘zbek klassik musiqasi va uning tarixi. T.: (eski o‘zbek yozuvi) 1927, 2-nashri, 1993.
3. Музыкальная эстетика стран Востока. М., 1967.
4. История узбекской советской музыки. 1-3 томлар. Т., 1972, 1973, 1991.
5. История узбекской музыки. М., 1979.
6. История музыки Средней Азии и Казахстана. М., 1994.
7. Музыковедение. Дискография. Алматы., 2004.
8. G‘ofurbekov T. Saylanma.T., 2009.
9. G‘ofurbekov T. Musiqa – mening Borlig‘im. T.,2015.

AMIR TEMUR QIYOFASI YEVROPA OPERA IJODIYOTIDA:

HAQIQAT VA BADIYAT

Uzoq o‘tmishda, Sohibqiron Temurbek davridan ancha avval, Yevropa madaniy markazi bo‘lmish – antik Rimda, ilk bor “*Lux viene dell` oriente*” (“Nur-Sharqdandir!”), – degan xitobli so‘zlar jaranglagan edi. XX asrda P.Bulez (“Alea”, 1957), I.Stravinskiylarning mazkur haqiqat borasidagi da’vatlari.

Hozir ushbu xitob aynan kimga taalluqli ekanligini aniqlash qiyin, lekin uning dono mazmuni va haqiqatan bashoratli ekanligi ayondir, zero Yevropa madaniyati va san’atining keyingi butkul taraqqiyoti – u yoki bu tarzda aynan

Sharq bilan bog‘langanligi bundan dalolat beradi.

Buyuk sultanat sohibi, qudratli sarkarda, nafaqat Markaziy Osiyoni, balki Yevropani ham Turkiya tahlikasidan ozod qilgan xaloskor – Amir Temur (yevropaliklar uchun – Tamerlano)ning musiqiy qiyofasini Yevropa kompozitorlari gavdalantirishga harakat qilganliklari yuqorida aytib o‘tilgan jarayonning sermahsul davri bilan bog‘liqdir. XVII (!) asrning oxirlarida yaratilgan Ioxann Filipp Fortchning “Boyazid va Temur”, Mark Antonio Zianining “Buyuk Temur”¹⁵ operalarini shunday asarlar jumlasiga kiritish mumkin. Sohibqironning teran va to‘laqonli qiyofasini dastlab Italiya va Germaniya kompozitorlari yaratishgan. Shu bois, mavzuning ilk *kashfiyotchisi* deb *Neapol opera maktabining asoschisi*, opera-seriya (va opera-buffa) larning mashhur ustasi Alessandro *Skarlatti* (1660-1725)ni hisoblash mumkin. Biz uning 125 dan ziyod operalari orasida Rimda ilk bor 1706-yilda sahnalashtirilgan, “Il’gran Tamerlano” – “Buyuk Temur” deb atagan opera-seriya janridagi asari borligini aniqlashga muvaffaq bo‘ldik. Shuni alohida ta’kidlash lozimki, A.Skarlatti – Amir Temur obraziga o‘z ijodining cho‘qqisida murojaat qilgan “Buyuk Temur” operasining premyerasi Neapolda emas, balki Rimda qo‘yilishi ko‘p narsani anglatadi, chunki Neapolitan opera maktabi ma’lum ma’noda Rim opera ijodiyoti maktabiga alternativ (raqobatli) edi.

A.Skarlatti bilan bir paytda Franchesko Gasparini (1668-1727) ham ushbu mavzuda mohiyati jihatidan undan kam bo‘lmagan opera yaratadi. Uning “Tamerlano” operasi birinchi tahrirda, dastlab Venetsiyada, so‘ng Rim va boshqa shaharlarda qo‘yilgan. A.Piavene va I.Zanellilarning librettosi asosida yaratilgan, Gasparinining asari, shakl jihatdan ulkan bo‘lib, uchta keng qamrovli pardalarni o‘z ichiga oladi. Birinchi va ikkinchi pardalarda 15 tadan sahna, uchinchisida esa, 16 ta sahna mavjud. Opera xotimasi ham birmuncha katta hajmga ega. Asarning keyingi tahrirlarida, sahnalashtiruvchilar

¹⁵Asarning bu tarzda (aslida “Il’gran Tamerlano”) ulug‘vor nomlanish keyinchalik ham “Temurnoma” opuslar mualliflari – A.Skarlatti (1706) va Jovanni Port (1730) kabi Italiyaliklardan tortib to chek klassigi I.Mislivichekgacha (1771) xarakterlidir.

tomonidan uning nomi “Boyazid”¹⁶ deb o‘zgartirilgan bo‘lsa ham, asarning dastlabki musiqiy materiali o‘zgarishsiz qoldi.

Mashhur mahorat egasi benazir sozanda A.Korellining shogirdi bo‘lgan Gasparini o‘zining operalariga rivojlangan cholg‘u tuzilma (lavha)lar va improvizatsiyalarni dadil olib kirgan. Ko‘pchilik yakka ariyalar, bu esa 5 (!)ta yaxlit ariya demakdir hamda birtalay ansambl sahnalarida va rechitativlarda Amir Temur siymosini ustuvor¹⁷ qilishi aynan shu bilan xarakterlanadi.

Yorqin misol sifatida 1-ko‘rinishdagi “Se la gloria...” (“Agar shon-shuhrat...”) so‘zlari bilan boshlanadigan Temurning ikkinchi ariyasini keltiramiz:

The musical score consists of seven staves. From top to bottom: Oboe I, Oboe II, Violino I, Violino II, Viola, Tamerlano, and a basso continuo section (Violoncello and Fagotto). The score is in common time, with a key signature of one flat. The instruments play various melodic and harmonic parts, with the basso continuo providing harmonic support.

¹⁶ Tahlil partituraning nashri bo‘yicha amalga oshirildi. F.GASPARINI. BAJAZET // DIE OPER. BAND. Munchen. 1981 (Reqqio-1719).

¹⁷ Taqqoslash uchun – operada Boyazidga 4 ta ariya va 2 ta uncha kata bo‘lmagan ariozo berilganligini qayd etishning o‘zi kifoya.

Se la glo - ri - a a tuo bei
 hi - mi die - roi Nu - mi di re gnar.

Ko‘rinib turibdiki, birinchi taktdayoq qudratli orkestr chiqishi – tutti, o‘zining qahramonona arxitektonikasi va Amir Temur vokal partiyasi aniq

qiyofaviy mazmundan darak beradi. Birinchi goboy va skripka partiyalarida orttirilgan sekundalar b-cis (!) e'tiborga molik bo'lib, mazkur musiqaga *umumsharq*¹⁸ orientalizmi unsurlarini baxsh etadi.

Bundan keyingi asar, opera-buffa janridagi Amir Temur timsoli mavjud bo'lib, u *Neapol opera maktabining* yana bir vakili – Leonardo Leo (1694-1744) qalamiga mansubdir. U o'z operasiga “Boyazid, Turkiya imperatori” deb nom bergen. Operaning premyerasi 1722-yili Neopolda bo'lib o'tadi. Leonardo Leo hamma qahramonlar (Boyazid, Temur)ning siymolarini tipik buffonada shaklida talqin qiladi. Bizdagi ma'lumotlardan ayon bo'lishicha, bu opera Leonardo Leo ijodining eng muhim yutuqlaridan bo'lgan.

O'z asarlarida Amir Temurni bosh qahramon sifatida gavdalantirgan mualliflar sirasiga Nikola Porpora (1686-1768) ham kiradi. Uning “Tamerlano” operasi ilk bor 1730-yilda Turinda qo'yilgan. Ushbu asar N.Porporaning ekzotik opera-seriyalari “Vasiliy-Sharq hukmdori” (1713, Neapol), “Kamilla tantanasi” (1740, Neapol) va boshqa asarlari qatoridandir.

Temur obrazini yaratish buyuk virtuozi-skripachi va kompozitor Antonio Vivaldining (1687-1741) ham e'tiboridan chetda qolmadi. Uning “Temurlang” operasi (1735, Veronada sahnalashtirilgan) ijodida ijobiy bosqichli asar hisoblanadi.

XVIII-XIX asrlarda Italiyalik yana ikki kompozitor – Antonio Sakkini (1730-1786) va Antonio Sapiensa-kichkina (1794-1855)lar ham “Temurlang” nomli operalar yaratishadi. Xarakterli tomoni shundaki, ikkala asar ham Italiyada emas, balki uning chegaralaridan ancha olisda qo'yilgan. O'z operasini Sakkini 1733-yili Londonda, Sapiensa esa 1828-yili Peterburgda sahnalashtirishgan.

Shunday qilib, Amir Temur siy whole into the body of the sentence. I will correct it for you.

Demak, XVII asr oxiridan boshlab, Italiyada deyarli har o'n yilda Amir

¹⁸ Mazkur atama orqali biz, umuman, Sharqqa xos bo'lgan uslubiy borliqlarni nazarda tutamiz.

Temurga bag‘ishlangan operalar yuzaga kelgan bo‘lsa, bundan farqli o‘lar oq Germaniyada bunday asarlar kamroq yaratildi. Bugungi kunga kelib, bizning (R.A.Tursunova bilan hamkorlikda) sa’y-harakatlarimiz bois, I.F.Fortchning yuqorida qayd etilgan operasidan tashqari, “temuriy” opuslar Georg Filipp Teleman (1681-1767) va, ayniqsa, Georg Fridrix Gendel (1685-1759)larning ijodiy meroslarida ham muhim o‘rin tutishi aniqlandi.

Gendelning “Temur” (aslida “Tamerlano”) operasi 1996-yildan e’tiboran Alisher Navoiy nomidagi DAKT sahnasida ijro etilayotganini hisobga olib, aynan uni batafsilroq tahlil qilish maqsadga muvofiqdir.

Ma’lumki, Gendel o‘zining buyukligini aynan opera janrida ham namoyon qilgan. Nemis kompozitorining qirqdan ziyod operalari uning ijodiy g‘oyalari ibratl darajada kengligidan dalolat beradi. U o‘zining oratoriyalarida, asosan, Bibliya mavzulari bilan cheklangan bo‘lsa, operalarida syujetlari parametrlarni qat’iy jur’at bilan astoydil kengaytiradi. Gendelning bunday izlanishlari natijasida yana bir durdona asar – “Yuliy Sezar” bilan bir yilda, ya’ni 1724-yili “Temur” operasi yuzaga keldi. O’sha paytda uning bu ikki operasi zo‘r muvaffaqiyat bilan Londonda, “Qirolicha musiqa Akademiyasi” rahnamoligida sahnaga qo‘yildi.

Gendelning “Temur” operasi o‘z miqqosiga ko‘ra, Gasparinining aynan shu nomdagi asariga nisbatan birmuncha ixchamroq bo‘lib, orkestr muqaddimasi, 3 ta akt va xotima bilan jami 29 ta nomerdan iborat. Ammo Gendel ulkan Ustozga xos ravishda, buyuk sarkarda siymosini yaratar ekan, Temur qiyofasiga taalluqli bo‘lgan uch yirik ariyalarda, ya’ni I-II pardalardagi kengaytirilgan sahnada va “Irena bilan duet” sahnasida, III pardadagi bir qator ansamblar, qahramonlarning rechitativlarida barcha imkoniyatlardan maksimal darajada foydalanadi.

Yuqorida aytilganlar, ayniqsa, ikkinchi pardadagi Bosh qahramonning *markaziy ariyasida* o‘z ifodasini topadi va uni operaning mantiqiy *kulminatsiyasi* deb atash mumkin. Unda kompozitor musiqiy ta’sirchanlikni oshiruvchi barcha vositalar, xususan, Temurga xos bo‘lgan epik-qahramonlik

ifodavyi tamoyillaridan unumli foydalangan:

Allegro

Tamerlan

Cembalo

poco f

mf

Hell er - strahl in Wett - ge - oran - ge Glanz der
Rel - la - ga - na che - la - nin - no co - ro

Kro - nen, Glanz der Lie - be!
na - lii no - giri mo - ri!

hell er -
bel - la -

strahl in Wett - ge - pran - ge
- ga - ra chie - fä - ren - no


poco f (roll)

Glanz - der Kro -
co - ro na -

Cembalo *cresc.*

Gendel har bir yevropacha musiqiy ifoda orqali Temurning qiyofaviy mohiyatini ta'kidlashga e'tibor beradi. Hattoki ariyaning tempini belgilashda ham Allegrodan so'ng, kompozitor uning aynan qanday bo'lishi lozimligini – Glanzvoll, ya'ni tantanali, yorqin deya ko'rsatgan ekan? bosh partiya ijrochisi mazkur ariyani ko'tarinki darajada talqin etishi lozimligini qo'shimcha tarzda qaydlaydi.

G.F.Gendel musiqasini tinglab, unda Temur, Boyazid va boshqa qahramonlarning ariyalari ishonchli chiqqaniga qaramay, o'zingizga savol berasiz: qanday qilib buyuk nemis kompozitori o'z asariga Sharq ruhini, yanada aniqroq aytadigan bo'lsak, turkona musiqani singdirdi? Va, umuman, u o'z oldiga bunday maqsadni qo'yganmidi? Qo'yungan desak, noto'g'ri bo'lar va kompozitorga nisbatan hurmatsizlik qilgan bo'lardik, chunki tadqiqotchilarining ta'kidlashlaricha, Temurga bag'ishlangan operasiga qadar yaratgan "Radamisto" (1720) operasida u Frakiya va arman musiqasi ruhini qo'llashga, "Yuliy Sezar" (1724) operasida esa Misr folklori ruhini berishga baholi qudrat harakat qilgan ekan.



umuman, Sharq musiqasi sifatida namoyon bo‘ladi.

Aynan shu tarzda Temurning boshqa ariyasi 11-sahnaning birinchi aktidagi sol-minor tonalligida (chembalo bilan) namoyon bo‘ladi. Bosh qahramon va orkestr partiyalarining o‘zaro hamohangligi, sekundalarning “masofada” orttirilishi, quyi tomon takrorlanuvchi ohang siljishlarining III pog‘onadan orttirilgan VII pog‘onaga ko‘tarilishi –bularning barchasi aksariyat Yevropa kompozitorlarining to Iogann Shtraus-o‘g‘ilgacha odad tusini olgan “turkcha” va “forscha” opuslari (ayniqsa, marshlar) uchun xarakterli belgilardan bo‘lgan. Biroq Gendel talqinida Temurlang yuksak his-tuyg‘uli botirona timsolda yaratilgan bo‘lib, u opera-seriya va opera-buffaga xos bo‘lgan ma’lum darajada “dabdabali” qahramondir.

Albatta, nemis kompozitori operasidan tarixiy haqiqatni to‘liq talab qilish qiyin, chunki asarda real hodisalar ro‘y bergen (1400 yil) davrdan 324 yil(!) keyingina qandaydir “tartar xoni” timsoli (librettoda shunday ko‘rsatilgan)da yaratilgan. Shu munosabat bilan asl nuxada Amir Temurga dastlab baland ovoz (alt) ajratilgan bo‘lib, u 64 yoshlik hukmdor uchun to‘g‘ri kelmasligi ham

Partitura (1876-yili nashr etilgan) va klavir (Braytkopf va Xartel nashriyotida Xerman Rott tayyorlagan) asosida qilingan tahlil operaning qator sahnalarida (ular esa jami 29 ta – 9 tasi birinchi aktda, 10 tasi ikkinchi va 10 tasi uchinchi aktlarda) Vena klassik maktabi uchun xos bo‘lgan “yanicharlik” musiqiy unsurlarini qo‘llanganligi yuzaga chiqardi. Bunday unsur esa Yevropa tinglovchisiga nafaqat turk harbiy musiqasi, balki,

IL BAJAZETTE

Dramma Tragico per Musica
Da rappresentarsi nel Teatro pubblico
D I R I M I N O
Nel Carnevale dell' Anno 1741.
CONSEGRATO
All'Eminentiss., e Revmo Princepe
IL SIGNORE CARDINALE

CARLO DE MARINI

Legato degnissimo dell' Emilia.



*In BOLOGNA per Lorenzo Martelli.
Con licenza de' Superiori.*



Bugun, XXI asrda Sohibqiron Amir Temur haqida o‘ylar ekanmiz, nafaqat O‘zbekistonda, balki butun dunyoda uning shaxsiga munosabatlar o‘zgarib, tarixiy haqiqat tantana qilayotganiga shohid bo‘lmoqdamiz. Nafaqat Italiya kompozitorlarining operalari, balki buyuk Gendelning¹⁹ operasi qayta yangi hayotini boshlayotgan ekan, ushbu musiqani diqqat bilan va yaxlit holda tinglabgina fikr yuritishimizni taqozo qilib, umuman, turli mamlakatlarning kompozitorlari tomonidan yaratilgan, o‘lmas ajdodimizga bag‘ishlangan asarlarga faqat professionallik tushunarli bo‘ladi.



tushunarli bo‘ladi.

Buni Xerman Rott 1925-yilda opera klavirini yangi nashrga tayyorlash jarayonida juda yaxshi tushungan. U operaning nomini aniqlab, “Tamerlano” emas, “Tamerlan” deb belgilaydi, Bosh qahramon registrini notabiyy yuqori altdan – oliyanob bas-baritonga o‘zgartiradi.



Shogirdim musiqashunos-tadqiqotchi R.A.Tursunova tomonidan “G‘arbiy Yevropa operalarida Amir Temur obrazi” nomli mavzu bo‘yicha olib borilgan izlanishlar asosida 1706-1976-yillar (ya’ni, 270 yil) mobaynida Italiya, Germaniya, Angliya, Chexiya, Fransiya mamlakatlarida mazkur mavzuga murojaat qilgan mualliflar va ularning musiqiy-sahnaviy asarlari

¹⁹ Bundan bir necha yil muqaddam navbatdagi “Gendel festivali”da, uning qadrdon Xalle shahrida “Tamerlan” operasi yangicha tahrirda sahnlashtirilganini eslab o‘taman.

aniqlanib, quyidagi ro‘yxatda keltirildi:

1. Alessandro Skarlatti (1660-1725) – “Buyuk Temur” (“IL Gran Tamerlano”) opera, 1706-yil;
2. Leonardo Leo (1694-1744) – “Boyazid – Turkiya imperatori” (“Bajazete Imperador de’ Turchi”) opera, 1722-yil;
3. Nikolo Porpora (1686-1766) – “Temur” (“Tamerlano”) opera, 1730-yil;
4. Antonio Vivaldi (1675-1741) – “Temur” (“Tamerlano”) opera, 1735yil;
5. Antonio Sakkini (1730-1786) – “Temur” (“Tamerlano”) opera, 1773-yil;
6. Antonio Sapiensta-o‘g‘il (1794-1855) – “Temur” (“Tamerlano”) opera, 1828-yil;
7. Agostine Piavene (1671-1721) – “Tamerlano” libretto, 1709-yil;
8. Franchesko Gasparini (1668-1727) – “Temur” (“IL Tamerlano”) opera, 1717-yil;
9. Djovanni Tadolini (1789-1872) – “Temur” (“Tamerlano”) opera, 1815-1827-yil;
10. Djuzeppe Skolari (1720-1774) – “Temur” (“IL Tamerlan”) opera, 1763-yil;
11. Fortunatto Chelleri (1690-1757) – “Temur” (“Tamerlano”) opera, 1721-yil;
12. Mark Antonio Ziani (1653-1715) – “Buyuk Temur” (“IL Gran Tamerlano”) opera, 1689-yil;
13. D Julio Chezare Korradi (...-1700) – “Buyuk Temur” (“IL Gran Tamerlano”) libretto, 1690-yil;
14. Francesko Kiampi (1690-1764) – “Temur” (“Tamerlano”) opera, 1716-yil;
15. Djovanni Antonio Djai (1690-1764) – “Temur” (“ILTamerlano”) opera, 1724-yil;
16. Bernardo Saddumene (1721-1754) – “Boyazid Turkiya imperatori” (“Bajazete Imperador de’ Turchi”) opera, 1722-yil;
17. Djovanni Porta (1675-1755) – “Buyuk Temur” (“IL Gran Tamerlano”)


opera, 1730-yil;

18. Antonio Nini – “Temur” (“Tamerlano”) opera, 1728-yil;
19. Edidgio Duni – “Temur” (“Tamerlano”) opera, 1743-yil;
20. Djiochino Kuchi – “Temur” (“Tamerlano”) opera 1746-yil;
21. Djovanni Batista Lampugnani – “Temur” (“Tamerlano”) opera, 1746-yil;
22. Daniel Del Barba (1715-1801) – “Buyuk Temur” (“IL Gran Tamerlano”) sahnnaviy asar-parodiya, 1746-yil;
23. Djovani Batista Pesseti (1704-1766) – “Temur” (“Tamerlano”) opera, 1754-yil;
24. Bernasskoni – “Temur” (“Tamerlano”) opera, 1754-yil;
25. Petro Guglielmi – “Temur” (“Tamerlano”) opera, 1764-yil;
26. Djuzeppe Sorti – “Temur” (“Tamerlano”) opera, 1764-yil;
27. Ferdinand Payer – “Temur” (“Tamerlano”) opera, 1796-yil;
28. Simon Mayer – “Temur” (“Tamerlano”) opera, 1812-yil;
29. Mikael Karafa (1787-1872) – “Temur” (“Tamerlano”) opera, 1824-yil;
30. Djuzeppe Nikolini (1763-1824) – “Temur” (“Tamerlano”);
31. Petro Kazella (1769-1845) – “Temur” (“IL Tamerlano”) opera, 1840-yil;
32. Georg Fridrix Gendel (1685-1759) – “Temur” (“Tamerlano”) opera, 1724-yil;
33. Georg Filipp Teleman (1681-1767) – “Temur” (“Tamerlano”) opera, 1729-yil;
34. Yoxan Filipp Fortch (11652-1732) – “Boyazid va Temur” (“Bajazeth und Tamerlan”) opera, 1690-yil;
35. Yoxan Kristof Petst (1664-1716) – “Temur” (“Tamerlanes”) opera, 1706-yil;
36. Djozan Fridrix Richards (1752-1814) – “Temur” (“Tamerlan”) opera, 1786-yil;
37. Etenn Morel de Chefdevile (1747 -1814) – “Temur” (“Tamerlan”)

libretto;

38. Piter fon Vinter (1754-1825) – “Temur” (“Tamerlan”) opera, 1802-yil;
39. Djozef Mislivechek (1737-1781) – “Buyuk Temur” (“IL Gran Tamerlano”) opera, 1771-yil;
40. Ser Genri Bishop (1786-1855) – “Temur va Boyazid” (“Tamerlane and Bajazet”) katta balet, 1806-yil;
41. Djozef Xolbruk – “Temur” (“Tamerlane”) nomli juftlangan fagot va klarnet uchun cholg‘u konsert, 1939-yil. Edgard Poning “Tamerlan” asari asosida yaratilgan;
42. Adrian Frensis Kruft (1921-1987) – orkestr uchun “Temur” (“Tamburlaine”) nomli simfonik asar, 1962-yil;
43. Ieyn Ellis Gamilton (1922) – “Temur” (“Tamburlaine”) nomli radio-postanovka 1976-yil;
44. Jozue Vilkes (1883-1968) – “Por el Cedro y La Corona” asar, 1924-yil.

Mavzu rejasining diagramma shaklidagi ko‘rinishi



Tayanch so‘zlar:

Opera-seria, libretto, komipozitor, sahnaviy asar, A.Skarlatti, F.Gasparini, A.Piavene, G.F.Gendel, partitura “Tamerlano” va Amir Temur.

Nazorat savollari:

1. Amir Temur (yevropaliklar uchun Tamerlano)ning musiqiy qiyofasi qaysi kompozitorlar ijodida muhrlanib qolgan?
2. G.F.Gendel qalamiga mansub “Tamerlano” operasining ta’rifi.
3. Neapol opera kompozitorlari ijodida Amir Temur obrazi.
4. Nemis kompozitorlari ijodida Amir Temur obrazi.
5. Opera-seria: zamon va talqin masalasi.

6. Sahnaviy asarlarda haqiqat va badiiyat masalasi.
7. Sharq qahramonini tasvirlashda qo‘lanilgan musiqiy ifodaviy vositalar.

Adabiyotlar:

1. Ромен Роллан. Г.Ф.Гендель. М.: 1934.
2. Грубер Р. Гендель Г.Ф. Л.: 1935.
3. Гёте И. Собрание сочинений в 10 томах. Т.1. М.: «Художественная литература». 1975 г. с-503.
4. Лангле Л. Жизнь Тимура. Пер. с фран. Н.Суворова. Т.: 1980.
5. Bobur Z. Boburnoma. Т.: 1982.
6. Vamberi X. Buxoro yohud Movaraunnahr tarixi. Т.: 1990.
7. Ahmedov B. O‘zbekiston xalqlari tarixi manbalari. Т.: 1991.
8. Berezikov E. Buyuk Temur. Т.: 1995.
9. Хильда Хукхем. Властитель семи созвездий. Т.: “Adolat”, 1995.
10. Amir Temur va Temuriylar davrida madaniyat va san’at. Т.: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1996.
11. Amir Temur jahon tarixida. Parij.: 1996, o‘zbek, fransuz, ingliz va rus tillarida.
12. Amir Temur (Amir Temur 660 yilligiga bag‘ishlangan Xalqaro simpozium materiallari. Samarqand, 1996, 27-29-sentabr, 14-bet). Т.: 1997.
13. G‘ofurbekov T. Amir Temur siymosi talqinlari: haqiqat va badiiyat. // Amir Temur. Simpozium materiallari. Т.: 1997.
14. Keren L., Saidov A. Amir Temur va Fransiya. Т.: Adolat, 1996.
15. Клавихо Руи Гонзалес. Дневник путешествия в Самарканд ко двору Тимура: 1403-1406 // Пер. со старо-исп. СП б. 1881.
16. Tursunova R. G‘arbiy Yevropa mualliflari sahna asarlarida Amir Temur obrazi. //J. San’at. №2. – Т., 2006.
17. Tursunova R. XVI-XIX asr G‘arbiy Yevropa dramaturglari asarlarida Amir Temur obrazi. //J. Teatr №2. – Т., 2010.
18. Tursunova R. 9-aprel – Amir Temur tavallud topgan kun. //J. Jahon

adabiyoti №4(203). T., 2014.

19. Gyote Yohann Wolfgang. G‘arbu Sharq devoni. T., 2016.


O‘ZBEKISTON MUSIQIY ESTRADASI: KECHA VA BUGUN

XX asr ommaviy, xususan, estrada qo‘sishqchiligining atoqli namoyandasi Aleksandra Nikolaevna Paxmutova Rossiyaning “Культура” DTRKda intervyu bera turib, ma’lum taassuf bilan: «Пока наши телеканалы и радиоэфиры заполнены крутыми (I.Krutoy nazarda tutilmoqda – T.G.) и буйными (V.Buynov) ребятками, новым высокохудожественным песням – как минимум лет 20 (!) не бывать!» deyishi nihoyatda e’tiborlidir.

Mazkur fikrni O‘zbekiston musiqiy estradasiga nisbatan chamlab ko‘rsak, nazarimda, bu haqiqatni isbotlash – ancha ko‘proq vaqt ni o‘z ichiga olishi mumkin. Zero, bir paytlari – ayni XX asr o‘rtalaridan “Botir Zokirov Vatani”, keyinroq “Yalla yurti” nomi bilan dunyoga tanilgan O‘zbekistonda bu sohadagi boy an’analarimiz bir chekkaga surilib, yetti (balki undan ham uzoq) iqlim naridagi uslubiy va, ayniqsa, ijroviy “topilma”lar nainki teleradio orqali, balki muntazamlik tusini olgan “Xalqlar do‘stligi” saroyi, “Turkiston” yoinki “Zarafshon” konsert zallarida baralla yangramoqda...

“O‘tmishsiz kelajak yo‘q!” naqliga amal qilib, musiqiy estrada tarixiga bir nazar tashlaylik.

Ma’lumki, o‘tgan asrning ilk pallalarida jahonning darg‘a kompozitorlaridan Igor Stravinskiy (1882-1971), Darius Miyo (1892-1974), Paul Xindemit (1895-1963) va, albatta, Jorj Gershvin (1899-1937)lar estrada musiqasi, xususan, professional ja z tomon ijodiy nigoh tashlab, bir-biridan turfa, muhimi – *badiiy yetuk* asarlar yaratishdi. Shu bilan birga, muayyan va *ijodiy yechimlarga* boy an'anaga asos solishdi. Bundan XX asr musiqiy estradasi ham, mazkur yo‘nalishdagi kompozitorlik ijodiyoti ham ijobiy samaralarga ega bo‘lgan.



O‘zbekistonda ham (yuqorida qayd etganimizdek – o‘tgan asrning o‘rtalaridan e’tiboran) ayni ana shunday j a r a y o n yuzaga kelgan. Xususan, 1958-1972-yillari muayyan ijodiy muhitni kashf etgan O‘zbek davlat estrada orkestri va uning ilk rahbarlari – kompozitor Sharif Ramazonov, kompozitor va dirijyor Albert Malaxov, xonanda Botir Zokirov

– jarayon tamal toshini qo‘yishdi, kelajakni belgilashga muyassar bo‘lishdi. Faqat mahalliy ijodkorlar bilan chegaralanmay, Moskvadan Aleksandr Dvoskin, ayniqsa, Yan Frenkel kabi tajribali dirijyor va kompozitorlar mazkur jo‘shqin jarayonga jalb etildi. Natijada asrning ikkinchi yarmidan boshlab jahon musiqiy estradasiga tubdan *yangi* bir an’ana – o‘zigagina xos *o‘zbekona estrada* qo‘shiqchiligi kirib keldi. Kirib kelganda ham, teran milliylik alomatlariga ega qator ijodiy tamoyillarini namoyon etdi. Bular *dastlabki* pallalarda:




- o‘zbek folklori aranjirovkalari;
- jahon, xususan, Sharq xalqlari folklori aranjirovkalari;
- mustaqil yaratilgan qo‘shiqlardan iborat edi.

Birinchi guruhdan Sh.Ramazonov qayta ishlagan “Namanganning olmasi”, “Ey, mehribonim”, keyinroq Enmark Solihov qayta ishlagan “Qiz bola” va boshqalar o‘rin olgan.

Ikkinci tamoyilni esa o‘zbek xonandalik san’atining fig‘onli vakili Botir Zokirov (1936-1985) ilk bora betakror talqin etgan hind, arab (Misr, Suriya, Iroq, Livan) xalq qo‘shiqlari tashkil etdi. Bular orasida hanuz ta’sirchanligini yo‘qotmay kelayotgan Ya.Frenkel aranjirovkasidagi “Arabcha

tango” va “Uyqum o‘g‘risi” (Misr), “Maro bebus” (Eron) kabi durdonalar mavjudligini eslatib o‘tish joiz.



ko‘targan muallif Ikrom Akbarov bo‘lsa-da, bu boradagi dastlabki harakatlar Sh.Ramazonov (“Dilrabo”), S.Yudakov (“Karnaval valsi”), M.Burhonov (“Maftun bo‘ldim”)larning ijodiy tajribalari bilan bog‘liqligini ham e’tirof etish o‘rinlidir.



Nihoyat, *uchinchidagi* turdagи asarlar – O‘zbekiston kompozitorlari qalamiga mansub ilk o‘zbek estrada qo‘shiqlaridan edi. An’anani badiiy mukamallik darajasiga

Ikrom Akbarovning talaygina estrada qo‘shiqlaridan kamida o‘ndan ortig‘i – nozik ovoz va noyob talqin sohibi Botir Zokirov faoliyati bilan chambarchas bog‘liqdir. Kompozitor o‘zining “Bahor fasli” (B.Zokirov she’ri),

“Ra’no” (S.Akbariy), “Gazli”, “Mahbubga”, “Ketma, Nigor” va “Qaydasan” (T.To‘la), “Yor kel” va “Qo‘shchinor” (H.G‘ulom), “Qor yog‘ar” (S.Zununova) kabi qator qo‘shiqlarini bevosita mashhur xonanda ovoziga, ijro imkoniyatlariga moslab yaratgan. Shu bois, bu qo‘shiqlarning aksariyati o‘z badiyligini yo‘qotmay kelmoqda, ayrimlari (1989-yildan e’tiboran) B.Zokirov nomidagi maxsus Respublika tanloving *albat* asarlariga aylangan bo‘lsa, ba’zilari (“Yor kel” – N.Abdullayeva va Farrux Zokirovlar talqinidagi kabi) yangi nafasdagi o‘z g a ch a hayotini boshlamoqda.

1970 yilgi M.Uyg‘ur nomidagi TTRSI O‘quv teatri rahbari G.Rojkov va

kompozitor Yevgeniy Shiryayevlar tashkil etgan “Yalla” davlat vokal-cholg‘u ansambli shakllanishi²⁰ va, umuman, musiqiy estradamizning keyingi odimlari, xususan, ijodiy va ijroviy yutuqlari yuqorida ta’kidlangan boy an’analar bilan uzviy bog‘liqdir. Buni hozirgi kunda nainki keng tinglovchilar doirasida, balki mutaxassislar orasida ham ijobiy baholanib kelinayotgan xonandalar – Yuduz Usmonova, Nasiba Abdullayevalar, “Yalla” ansamblining so‘nggi yillardagi va “Nola” (1995 yili Ikrom Miroqulov, Abdulla Shomag‘rufov va Baxtiyor Qobilovlardan tashkil topgan) kabi yangi davr guruhlar repertuari misolida yaqqol kuzatish mumkin: Birinchi xonandaning – “Elim”, “Sanamgina” va “Sultonli davlatim mening”, ikkinchisining – “Barigal”, “Sumbula” (“Tanovar”) va “Arzimni aytdim”, “Nola”ning – “Parvona qilgansiz”, “Mastona bo‘ldim” va yangi bir yo‘nalishni boshlab bergen – estrada uslubida aranjirovkalangan bastakorlarimiz – Nabijon Hasanov (“Sallamno”), Orifxon Hotamov (“Sensan sevarim”), Halimjon Jo‘rayev (“O‘rtar”)larning asarlari ham misol bo‘la oladi. Bunday ijro, aniqrog‘i t a l q i n l a r mohiyati, asl sababi mohir dirijyor Yu.Temirkhanov ta’biri bilan aytganda²¹ notalar, umuman tovushlar va ular o r a s i d a g i teranlikni to‘la anglash, tinglovchilarga yetkazib berishdadir.

Ming afsuski, hozirgi (XX-XXI asrlar kesimidagi) estrada ijrochilarida buning *aksi* – na notalar (agar ular haqiqatan qog‘ozga tushirilgan bo‘lsa!?), na ular orasidagi tovushlar aniq aytilmay, uzlusiz glissandolar, to‘rttagina so‘zni biluvchi to‘tiqushlarday bir xil so‘z yoki ular birikmasini... poyonsiz (“Bugun bayram...” va unga o‘xshash qo‘shiqlardagi kabi) takrorlaridan iborat.



²⁰ O‘zMEning IV jildidagi “Zokirovlari”, X jildidagi “Yalla” va “Estrada orkestri” maqolalariga qaralsin.

²¹ Yuriy Temirkhanov bilan intervju // Аргументы и факты. 2006. №31 (avgust).

Boz ustiga bir qator qo'shiqchilar – Mahmud Nomozov, Larisa Moskalyova, Ozoda Nursaidova va boshq., "Sarbon", "Qars", "Diyor" va bularga uslubdosh guruhlar marosim folklorimiz namunalarini, Sevara Nazarxon ("Mo'g'ulchai Navo"), Larisa Moskalyova ("Marvarid" taxallusi bilan – "Soqiynomai Savti Kalon")... maqom sho'balarini o'lda-jo'lda tarzda "ijro etish"ni odat tusiga kiritishmoqda.

Umuman, zamonaviy estrada ijrochilari orasida yetti yot begona guruhlarga ("Fayod"²² – yarim yalang'ochlikka o'rgangan "Блестящие..." guruhiga, "Setora" – "Miraj" guruhiga), o'nlab kalendar va bannerlarni "bezab" turgan Rayhon – Britni Spirsga va h.k.ga g'irt taqlidlardir, ochig'ini aytganda muayyan, ikki asr kesimidagi surunkali kasallikka aylanib bormoqda.

Nihoyat, hozirgi kun ijrochilarimiz yana bir ommaviy tus olayotgan kasalikka chalingan ko'rinishadi. Bu – yig'loqi qo'shiqlar ko'payib borayotganligi va eng ajablanarli tomoni... Vatan, Mustaqillik haqidagi qo'shiqlarda mazkur "betoblik" alomatlari kun sayin keng o'rin olishidir. Yoinki, ayni Vatan, xalqimizga bag'ishlangan balandparvoz, shioriy matnlar, biroq g'aliz, milliylikdan yiroq kuy va ritmlarga asoslanganlari ham kam emas²³.




Mazkur va o'zga kamchiliklarni bartaraf etishning birdan-bir yo'li – uzoq va yaqin o'tmishdagi musiqiy estradamiz an'analari hamda Fransiya, Yaponiya kabi bu sohada o'zligini yo'qotmay kelayotgan mamlakatlar

²² Darvoqe, ayni shu guruhning "Nozlanajakdir" (A.Nazarov musiqasi) qo'shig'I ta'kidlanayotgan guruhning "Апельсиновая песня"ning o'zginasi.

²³ Bunday salbiy holat va xususiyatlар O'zbekiston Milliy bog'ida o'tkazilib, Mustaqillikka bag'ishlangan konsert dasturlarida yaqqol namoyon bo'lar edi.

tajribasini puxta o‘zlashtirish, zamon zaylidan kelib chiqib, ijodiy uyg‘unlashtirishdadir.

Mavzu rejasining diagramma shaklidagi ko‘rinishi



Tayanch so‘zlar:

Musiqiy estrada, Botir Zokirov, estrada simfonik orkestri, estrada ijrochiligi, vokal-cholg‘u ansamblı, “Yalla”, Yulduz Usmonova.

Nazorat savollari:

1. O‘zbek estradasi asoschisi – Botir Zokirov ijodi.
2. O‘zbek estrada san’atining shakllanish tarixi.
3. Estrada-simfonik orkestri faoliyatini yoritib bering.
4. Kompozitor Ikrom Akbarovning qo‘shiqlari.

5. Milliy estrada tushunchasini ochib bering.
6. Zamonaviy estrada ijodiyoti muammolari.
7. Mumtoz qo'shiqlarning estrada janridagi talqini: muammo va yutuqlar.
8. O'zbek estrada san'ati rivojida "Yalla" va "Nola" ansamblarining o'mni

Adabiyotlar:

1. Аманмурадова С. Традиции песен эстрадного искусства Египта и Узбекистана (на примере творчества Умм Кулсум и Батыра Закирова). Автореферат канд.дисс. Т.; 1995.
2. Волков А. Батыр Закиров. // Певцы советской эстрады. Вып. 2. М.; 1977.
3. Амбарцумова Г. Человек стоявший у начала узбекской эстрады. // Звезда Востока. №7. 1986.
4. Mullajonov.D. 1990 yillar o'zbek musiqiy estradasida ohang muammosi. San.f.n. dis. Avtoreferati. T.; 2004.
5. Tursunova G. Karim Zokirov va uning sulolasi XX asr O'zbekiston musiqa madaniyati kesimida. San.f.n. dis. Avtoreferati. T.; 2007.
6. Гафурбеков Т. «Эстрадизация» музыкального фольклора: Pro et Contra// An'anaviy xalq madaniyatini saqlash muammolari. "Boysun bahori"-2. Т.; 2003.

MAVZULARNI MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOLLAR:

1. O‘zbekiston musiqa madaniyati va unga nomdosh o‘quv fani qamrovi, mohiyati.
2. XIX asr oxirida O‘zbekistonga yevropa (rus)cha musiqa an’analarining kirib kelishi va izchil singdirila boshlanishi sabablari.
3. Xonanda va bastakor Hoji Abdulaziz Abdurasulovning xorijiy safarnomasi.
4. Mulla To‘ychi Toshmuhamedovning xorijiy safarnomasi.
5. Hamza Hakimzoda Niyoziyning xorijiy safarnomasi.
6. Tamaraxonim va M.Qoriyoqubovlarning Fransiya hamda Germaniya gastrollari.
7. Usta Olim Komilov, Tamaraxonim, To‘xtasin Jalilov va Abduqodir Ismoilovlarning London konsertlari.
8. Avgust Eyxgornning O‘zbekistondagi faoliyati.
9. Nikolay Mironov va Frantishek Leyseklarning O‘zbekistondagi faoliyati.
10. N.N.Mironov: «Музыка узбеков», «Песни Ферганы, Бухары и Хивы», «Обзор музыкальных культур узбеков и других народов Востока» kitoblaridagi ijobiy va salbiy kuzatuvlar, xulosalar.
11. “Kolizey” teatrda sahnalashtirilgan “Farhod va Shirin” spektakli qaysi janrga taalluqli?
12. Mazkur teatrda “Layli va Majnun” (1922) asari qaysi janrga taalluqli?
13. V.A.Uspenskiyning folkloristik faoliyati tarix va hozirgi zamon mezonida.
14. V.A.Uspenskiyga mansub “Farhod va Shirin” musiqali dramasi: yutuq va kamchiliklar.
15. V.A.Uspenskiyning tarixiy-nazariy va estetik qarashlari.
16. Ye.Ye.Romanovskaya faoliyati o‘tmish va bugungi kun mezonida.
17. Toshkent rus opera teatri (1924-1928 y.y.)da gastrolda bo‘lgan mashhur xonandalar.
18. “Nurxon” musiqali dramasini yaratgan bastakor va kompozitor: asar va

mualliflarning O‘zbekiston musiqa madaniyatidagi tutgan o‘rni.

19. Ilk o‘zbek baleti muallifi: uning janr taraqqiyotidagi o‘rni.
20. “Bo‘ron” operasini kimlar yaratgan: asarning asosiy omillari?
21. “Layli va Majnun” operasi mualliflari: unda maqomlar.
22. O‘zbekistonda ilk musiqa bilim yurti qachon, qayerda ochilgan?
23. Turkiston Xalq konservatoriyasida qay darajadagi ta’lim joriy etilgan?
24. Toshkent Davlat konservatoriysi qaysi yildan o‘z faoliyatini boshlagan?
25. R.Glierning “Farg‘onacha bayram” uvertyurasining jahon premyerasi qayerda bo‘lgan?
26. “Oltin ko‘l” musiqali komediyasini yaratgan kompozitor: uning o‘zga sahna asarlari.
27. Leningrad konservatoriysi nima sababdan Toshkentga ko‘chirilgan?
28. D.Shostakovichning qaysi sifoniysi 1942-yili Toshkentda ijro etilgan?
29. M.Shteynbergning o‘zbek mavzularidagi asarlari.
30. Yu.N.Tyulinning o‘zbek mavzularidagi asarlari.
31. “Alisher Navoiyning 6 g‘azali” nomli vokal-simfonik partitura muallifi.
32. O‘zbek mavzularida ilk simfoniya yaratgan kompozitor?
33. O‘zbek opera studiyasi (Moskva) qaysi soha mutaxassislarini tayyorlagan?
34. Amir Temur obrazini gavdalantirgan nemis kompozitorlari?
35. Amir Temur obrazini gavdalantirgan italyan kompozitorlari?
36. “Samarqandga oltin sayohat” asarini yaratgan ingliz kompozitori?
37. Aram Xachaturyanning o‘zbek kuylariga murojaat qilgan asarlari?
38. “O‘zbek musiqali teatri” tushunchasi.
39. “O‘zbek simfonizmi” tamoyillari.
40. O‘zbek romansi xususiyatlari.
41. O‘zbek xor musiqasi tamoyillari.
42. Kompozitorlarimiz ijodida hind mavzulari.
43. Tojik, qozoq, qirg‘iz adabiyoti o‘zbek mualliflari ijodida.
44. O‘zbek bastakorlik ijodiyoti.
45. “Sharq taronalari” Xalqaro musiqa festivali.

46. Xalqaro “Ilhom-XX” festivali.
47. Xalqaro simfonik musiqa festivali.
48. O‘zbek an’anaviy musiqasi Yevropada.
49. O‘zbek kompozitorlari asarlari xorijiy G‘arb va Sharqda.
50. O‘zbekiston musiqashunosligining ilmiy qamrovi va mohiyati.

MUSTAQIL O'ZLASHTIRILUVCHI MAVZULAR:

1. M.Qoriyoqubov va Tamaraxonim Fransiya, Germaniyada (1925-yil).
2. T.Jalilov, A.Ismoilov, Usta Olim va Tamaraxonim – Angliyada (1935).
3. U.Hojibekov teatri Toshketda (1911, 1916).
4. Alisher Navoiy merosining O'zbekistonda musiqiy-sahnaviy janrlar shakllanishidagi o'rni.
5. D.Shostakovichning "Leningradnoma" simfoniyasining Toshkentdag'i ilk jahon premyerasi (1942).
6. Shekspir o'zbek musiqali teatrida.
7. Garsiya Lorka O'zbekiston kompozitorlari ijodida.
8. O'zbek musiqa san'ati YuNESKO tadbirlarida.
9. Xorij san'atkorlari mustaqil O'zbekistonda.
10. "Sharq taronalari" Xalqaro musiqa festivalining mohiyati.
11. O'zbek mualliflari ijodida xorij mavzulari.
12. Xalqaro simfonik musiqa festivali.
13. "Ilhom-XX" kamer musiqa festivali.
14. O'zbekiston musiqa san'ati xorij matbuoti va Internet tarmoqlarida.
15. Musiqa – O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasida (I-XII jildlar).
16. Birinchi "Xalqaro maqom san'ati anjumani" haqida (2018 yil 6-10 sentyabr).

GLOSSARIY

1. Alhon, lahn, mulahhin – ko‘y, kuylar va bularni yaratuvchi muallif.
2. Ashula, katta ashula – keng shakldagi musiqiy-she’riy asarlar.
3. Barbad (qofiyadosh tarzda Borbad) – VI-VII asrlarda faoliyat ko‘rsatgan xonanda, sozanda va keng qamrovlarda ijod qilgan bastakor.
4. Bastakor (shuningdek ma’nodosh – ashug, oqin, navosoz) – monodiya zaminida asarlar yaratuvchi mualliflar.
5. Variantlashuv – o‘zbek musiqa merosi, bastakorlik ijodiyotining yetakchi rivojlov tamoyili.
6. Monodiya – bir ovozlik(unison)ning mukammalashgan fenomeni, o‘zbek mumtoz, ayniqsa, cholg‘u (ansabl) musiqa merosi namunalari, bastakorlik ijodiyotida keng qo‘llaniladi.
7. Polimonodiya – o‘zbek musiqashunosligiga o‘tgan XX asrning 70 yillaridan ushbu qo‘llanma muallifi tomonidan kiritilgan atama, monodiyaning murakkablashgan tamoyili.
8. Tembral polifoniya – q. Polimonodiya

TEST SAVOLLARI:

1. “Poyezdingni yurg‘izgan...” qo‘shig‘i muallifi?
 - a) Hamza Hakimzoda Niyoziy
 - b) xalq kuyi
 - v) Boborahim Mirzayev
 - g) Muxiddin Qoriyoqubov
2. “Kolizey” teatrida (1922) sahnalashtirilgan “Farhod va Shirin” spektakliga musiqalarni kim tanlagan?
 - a) Mulla To‘ychi Toshmuhamedov
 - b) To‘xtasin Jalilov
 - v) Hoji Abdulaziz Abdurasulov
 - g) Sodirxon Hofiz Bobosharifov
3. “Halima” spektakli kim tomonidan musiqalashtirilgan?
 - a) Hamza Hakimzoda Niyoziy
 - b) Mannon Uyg‘ur
 - v) Ziyo Said
 - g) G‘ulom Zafariy
4. Turkiston xalq konservatoriysi qaysi yili va qayerda ochilgan?
 - a) Buxoro, 1920
 - b) Xiva, 1922
 - v) Toshkent, 1918
 - g) Qo‘qon, 1916
5. Quyidagi misralar muallifi kim?

Xalq dengizdir, xalq to‘lqindir, xalq kuchdir,
Xalq isyondir, xalq olovdir, xalq o‘chdir.

 - a) Fitrat
 - b) Cho‘lpon
 - v) Usmon Nosir
 - g) Qodiriy

6. O‘zbek radiosи o‘z faoliyatini qachon boshlagan?

a) 1917

b) 1920

v) 1927

g) 1924

7. Hamza Hakimzoda Niyoziy musiqa sohasida kim bo‘lgan?

a) kompozitor

b) bastakor

v) musiqashunos

g) dirijyor

8. Nurxon Yo‘ldoshxo‘jayevaning hayotdagi kasbi bevosita qaysi asarda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?

a) “Nurxon” simfonik poemasi – M.Leviyev

b) “Nurxon” musiqali dramasi – T.Jalilov va G.Sobitov

v) “Tanovaр” baleti – A.Kozlovskiy

g) “O‘zbekiston xotin-qizlari” – I.Hamroyev

9. M.Lievievning “Oltin ko‘l” asari qaysi janrga taalluqli?

a) opera

b) balet

v) musiqali drama

g) musiqali komediya

10. Toshkent Davlat konservatoriysi qachon tashkil topgan?

a) 1918

b) 1930

v) 1936

g) 1935

11. “Momo yer” musiqali dramasi qaysi adib asari asosida yaratilgan?

a) M.Auezov

b) Ch.Aytmatov

v) T.Kaipbergenov

g) B.Boyseitov

12. Ikkinchi jahon urushi yillari Toshkentga qaysi konservatoriya evakuastiya etilgan?

a) Leningrad

b) Moskva

v) Kiyev

g) Novosibirsk

13. Jami 20 ta simfoniya yaratgan o‘zbek kompozitori?

a) M.Ashrafiy

b) Ik.Akbarov

v) M.Tojiyev

g) T. Qurbonov

14. “Zaynab va Omon” operasini yaratishda qatnashgan bastakor?

a) To‘xtasin Jalilov

b) Yunus Rajabiy

v) Faxriddin Sodiqov

g) Komiljon Jabborov

15. “Maqomlar masalasiga doir” monografiyasining muallifi?

a) Tavur Jumayev

b) Fayzulla Karomatov

v) Otanazar Matyoqubov

g) Is’hoq Rajabov

16. Tamaraxonim va Muhiddin Qoriyoqubov 1925-yili qaysi Yevropa mamlakatlarida gastrolda bo‘lishgan?

a) AQSh va Buyuk Britaniya

b) Italiya va Ruminiya

v) Fransiya va Germaniya

g) Bolgariya va Vengriya

17. Qaysi shaharda 1935-yili o‘tkazilgan Xalqaro festivalda o‘zbek san’atkorlaridan 4 tasi oltin medalga sazovor bo‘lishgan?

a) Parij

b) London

v) Rim

g) Afina

18. Qaysi kompozitorning o‘zbek kuylari asosidagi partiturasini AQShda 1940-yili ijro etilgan?

a) M.Ashrafiy, 1-simfoniya

b) G.Mushel, 1-simfoniya

v) A.Kozlovskiy, “Lola” syuitasi

g) R.Glier, “Farg‘onacha bayram”

19. D.Shostakovich qaysi simfoniyasining jahon premyerasi Toshkentda bo‘lgan?

a) Birinchi

b) Uchinchi

v) Yettinchi

g) O‘ninchi

20. Qaysi o‘zbek dirijyori Malayziyada gastrolda bo‘lgan va bir necha yil ishlagan?

a) N.Olimov

b) B.Inoyatov

v) Z.Haqnazarov

g) A.Ergashev

21. Bastakorlikda ham nom chiqargan o‘zbek shoirlari?

a) A.Navoiy va Z.Bobur

b) Lutfiy va Xorazmiy

v) Muqimiy va Furqat

g) Sobir Abdulla va Mirtemir

22. Jami 40 ga yaqin musiqiy-sahnaviy asarlarga qo‘l urgan bastakor?

a) Yu.Rajabiy

b) T.Jalilov

v) G‘.Toshmatov

g) S.Kalonov

23. “Qoshi yosinmu deyin...” ashulasi muallifi?

a) F.Mamadaliyev

b) O.Hotamov

v) I.Ikromov

g) K.Jabborov

24. “Farg‘ona tong otguncha” ashulasi muallifi?

a) M.Murtazoyev

b) N.Qulabdullayev

v) T.Qodirov

g) O.Alimahsumov

25. “Holim so‘rma”, “Uchrashuv” asarlari muallifi?

a) A.Dadayev

b) A.Sanayev

v) A.Ismoilov

g) O‘.Rasulov

26. “Sharq taronalari” Xalqaro musiqa festivali qaysi shaharda va nechanchi yildan boshlab o‘tkazilmoqda?

a) Toshkent, 2000-yil

b) Buxoro, 1992-yil

v) Xiva, 2005-yil

g) Samarqand, 1997-yil

27. Xalqaro simfonik musiqa festivali qayerda, nechanchi yildan beri o‘tkaziladi?

a) Toshkent, 1998-yil

b) Andijon, 1995-yil

v) Farg‘ona, 1999-yil

g) Namangan, 2001-yil

28. Xalqaro zamonaviy musiqa festivali “Ilhom-XX” nechanchi yildan

e'tiboran o'tkazila boshlangan?

a) 2000-yil.

b) 2002-yil.

v) 1995-yil.

g) 2001-yil.

29. “O‘zbekiston Vatanim manim” ko‘rik-tanlovi qachon boshlangan?

a) 1990-yil.

b) 1994-yil.

v) 1995-yil.

g) 1996-yil.

30. Yuqori malakali maxsus musiqa oliygohi?

a) O‘zbekiston Davlat san’at va madaniyat instituti

b) O‘zbekiston Davlat konservatoriyasi

v) Toshkent Davlat jahon tillari universiteti

g) O‘zbekiston Milliy universiteti

31. “So‘g‘d elining qoploni” operasining libretto muallifi?

a) K.Yashin

b) S.Abdulla

v) B.Zokirov

g) T.To‘la

32. “So‘g‘d elining qoploni” operasini yaratgan kompozitor?

a) I.Akbarov

b) M.Ashrafiy

v) S.Boboyev

g) M.Bafoyev

33. “Tanovar” baleti muallifi?

a) O.Melikov

b) F.Amirov

v) A.Kozlovskiy

g) G.Mushel

34. “Humo” baletini yaratgan kompozitor?
- a) S.Varelas
 - b) V.Milov
 - v) B.Gienko
 - g) A.Ergashev
35. O‘zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi musiqasini kim yaratgan?
- a) M.Burhonov
 - b) I.Akbarov
 - v) R.Abdullayev
 - g) A.Mansurov
36. “Vatan ishqisi” musiqali dramasini yaratgan kompozitor?
- a) N.Norxo‘jayev
 - b) H.Rahimov
 - v) S.Boboyev
 - g) T.Toshmatov
37. “Fotima va Zuhra” musiqali dramasi muallifi?
- a) A.Mansurov
 - b) S.Karim-xoji
 - v) F.Olimov
 - g) A.Rasulov
38. “Alisher Navoiy” operasi muallifi?
- a) I.Akbarov
 - b) M.Leviyev
 - v) D.Zakirov
 - g) M.Burhonov
39. “Hamza” operasi muallifi?
- a) D.Saqatqulov
 - b) S.Boboyev
 - v) Sh.Ramazonov
 - g) F.Nazarov

40. “Uyg‘onish” operasi muallifi?

a) K.Abdullayev

b) D.Zokirov

v) N.Zokirov

g) O.Halimov

41. J.Neru va J.A.Nosir Xalqaro mukofotlariga sazovor bo‘lgan o‘zbek kompozitori?

a) M.Burhonov

b) M.Ashrafiy

v) S.Boboyev

g) I.Akbarov

42. “Yalla” vokal-cholg‘u ansambl tashkil etilgan yil?

a) 1965

b) 1967

v) 1969

g) 1971

43. San’atshunoslik ilmiy-tadqiqot instituti qachon va qayerda faoliyatini boshlagan?

a) 1918, Toshkent

b) 1928, Samarqand

v) 1938, Buxoro

g) 1948, Xiva

44. Turkiston xalq konservatoriysi qayerda va qaysi yili ochilgan?

a) Andijon, 1920

b) Farg‘ona, 1925

v) Toshkent, 1918

g) Termiz, 1922

45. Qaysi muassasada san’at sohalari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari himoyasi o‘tkaziladi?

a) O‘zbekiston Davlat konservatoriysi

b) San'atshunoslik ilmiy tadqiqot instituti

v) Toshkent Davlat pedagogika universiteti

g) O'zbekiston Davlat san'at va madaniyat instituti

46. Hozirgi kunda nechta musiqashunos-san'atshunoslik fanlari doktori

O'zbekistonda faoliyat ko'rsatmoqda?

a) Beshta

b) O'nta

v) Yettita

g) O'n ikkita

47. O'zbekistonda ilk "Musiqa lug'ati"ni nashr ettirgan musiqashunos?

a) Ilyos Akbarov

b) Mahmud Ahmedov

v) Fayzulla Karomatli

g) Tamara Vizgo

48. Yillar davomida O'zbekiston kompozitorlari uyushmasini boshqargan musiqashunos?

a) To'xtasin G'ofurbekov

b) Otanazar Matyoqubov

v) Fayzulla Karomatli

g) Ahmad Jabborov

49. O'zbek tilidagi birinchi "Garmoniya" darsligi muallifi?

a) Oqilxon Ibrohimov

b) Jasur Rasultoyev

v) Orzu Azimova

g) Dilora Murodova

50. O'zbek tilidagi ilk "Solfedjio" qo'llanmasi muallifi?

a) G'ofur Qodirov

b) Ibrohim Hamroyev

v) Rashid Hamroyev

g) Abdumannon Nazarov

51. O‘zbek sozandasi, xonandasi va bastakor – O‘zRFA akademigi?

- a) Hoji Abdulazizi Abdurasulov
- b) To‘ychi Hofiz Toshmuhammedov
- v) Yunus Rajabiy
- g) Orifxon Hotamov

52. O‘zbekiston Mehnat Qahramoni unvoniga sazovor bo‘lgan doirachi?

- a) Qahramon Dadayev
- b) Usta Olim Komilov
- v) Rahim Osixo‘jayev
- g) Tal’at Sayfiddinov

53. Chang soziga pedal o‘rnatgan sozanda?

- a) Fozil Harratov
- b) Usta Ro‘zimat Isaboyev
- v) Ahmad Odilov
- g) Tilash Xo‘jamberdiyev

54. O‘zbekiston kompozitorlari uyushmasi qachon tashkil topgan, uning birinchi raisi?

- a) 1935, Sh.Ramazonov
- b) 1936, M.Burhonov
- v) 1937, M.Ashrafiy
- g) 1938, T.Sodiqov

55. “Abu Ali ibn Sino” filmiga kim musiqa yaratgan:

- a) M.Leviyev
- b) M.Burhonov
- v) Ik.Akbarov
- g) R.Vildanov

56. “Navo” simfoniyasining muallifi?

- a) M.Mahmudov
- b) M.Tojiyev
- v) N.G‘iyosov

g) M.Bafoyev

57. O‘zbek xalq qo‘sishchilarini xor uchun qayta ishlash tamoyillarini aniqlagan xor dirijyori:

a) A.Sultonov

b) L.Shamshin

v) A.Yegorov

g) S.Valenkov

58. O‘zbekiston davlat xor kapellasi qachon tashkil etilgan va uning birinchi rahbari kim?

a) 1938, T.Sodiqov

b) 1940, M.Ashrafiy

v) 1946, X.Vohidov

g) 1952, S.Valenkov

59 O‘zbek va o‘zga Sharq xalqlari folklorini qayta ishlashga asos solgan kompozitor:

a) V.Uspenskiy

b) M.Burhonov

v) Ikr.Akbarov

g) B.Umidjonov

60. O‘zbek xalq kuylari ko‘povozlikning qaysi tamoyilida tabiiyroq toplanadi:

a) gomofoniya

b) polifoniya

v) variatsiya

g) rondo

61. Jo‘rsiz xor uchun ilk Konsert yaratgan kompozitor:

a) M.Burhonov

b) A.Sultonov

v) S.Jalil

g) A.Mansurov

62. “Bulbulcha” jamoasi qachon va kim tomonidan tashkil etilgan?

- a) 1960, A.Hamidov
- b) 1970, Sh.Yormatov
- v) 1980, M.Burhonov
- g) 1990, B.Umidjonov

TAVSIYA ETILGAN ADABIYOTLAR:

1. Аманмурадова С. Традиции песень эстрадного искусства Египта и Узбекистана (на примере творчества Умм Кулсум и Батыра Закирова). Автореферат канд.дисс.-Т.: 1995.
2. Амбарцумова Г. Человек стоявший у начала узбекской эстрады. // Звезда Востока. № 7. 1986.
3. Amir Temur (Amir Temur 660 yilligiga bag‘ishlangan Xalqaro simpozium materiallari. Samarqand, 1996, 27-29-sentabr, 14-bet) – Т.: 1997-yil.
4. Amir Temur va Temuriylar davrida madaniyat va san’at. – Т.: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1996.
5. Amir Temur jahon tarixida – Parij.: 1996. o‘zbek, fransuz, ingliz va rus tillarida.
6. Ahmedov B. O‘zbekiston xalqlari tarixi manbalari. – Т.: 1991.
7. Berezikov Ye. Buyuk Temur. – Т.: 1995.
8. Boburnoma.-Т.: 1982.
9. Вамбери Г. История Бухары или Трансоксании с древнейших времен до настоящих (Пер. с анг. СП б. 1873). М.; «Гураш» 1992.
10. Vamberi X. Buxoro yohud Movaraunnaxr tarixi. – Т.: 1990.
11. Волков А. Батыр Закиров // Певцы советской эстрады. Вып. 2. -М.: 1977.
12. Гёте И. Собрание сочинений в 10 томах. Т.1 – М.: «Художественная литература». 1975 г. с-503.
13. Говорят музыканты Узбекистана: двадцать лет спустя // «Музикальная Академия». 2004, №1.
14. G‘ofurbekov T. Amir Temur siymosi talqinlari: haqiqat va badiiyat. // Amir Temur. Simpozium materiallari. – Т.: 1997.
15. Грубер Р. Гендель Г.Ф. – Л.: 1935.
16. Jabborov A. Musiqiy drama va komediya janrlari O‘zbekiston kompozitorlarining ijodiyotida.-Т., 2000
17. История музыки Средней Азии и Казахстана. -М., 1994.
18. O‘zbek musiqasi tarixi.-Т.,1980.
19. История узбекской музыки. -М., 1979.
20. История узбекской советской музыки. 1-3 tomlar. -Т., 1972, 1973, 1991.
21. Keren L. Saidov A. Amir Temur va Fransiya. -Т.: Adolat,1996.
22. Клавихо Руи Гонсалес. Дневник путешествия в Самарканд ко двору Тимура: 1403-1406 // Пер. со старо-исп.-СП б. 1881.
23. Лангле Л. Жизнь Тимура. Пер. с фран. Н.Суворова. -Т.: 1980.
24. Matyoqubov O. Maqomot. -Т., “Musiqa”, 2004.
25. Музикальная эстетика стран Востока. -М., 1967.
26. Mulla Bekjon Rahmon o‘g‘li, Muhammad Yusuf Devonzoda. Xorazm musiqiy tarixchasi. -М., 1925. (eski o‘zbek yozuvni). II nashri, 1998.
27. Mullajonov D. 1990-yillar o‘zbek musiqiy estradasida ohang muammosi.

San. f.n dis. Avtoreferati. -T.;2004.

28. Musiqiy asarlar bo'yicha diskografiya.
29. Ромен Роллан. Г.Ф.Гендель. -М.: 1934.
30. Ртвеладзе Э.В., Саидов А.Х. Амир Темур в зеркале мировой истории. Библиография. Информация бюллетень. Париж, 1996.
31. Ртвеладзе Э.В., Алимова Д.А. История Узбекистана. Эпоха Амира Темура и Темуридов. Колл. монография. Т.: ФАН, 2017.
32. Tursunova G. Karim Zokirov va uning sulolasi XX asr O'zbekiston musiqa madaniyati kesimida. San.f.n. dis. Avtoreferati. -T.;2007.
33. Tursunova R. XVI-XIX asr G'arbiy Evropa dramaturglari asarlarida Amir Temur obrazi. - T.: 2010. Jurnal Teatr №2.
34. Tursunova R. G'arbiy Yevropa mualliflari sahna asarlarida Amir Temur obrazi. -T.: 2006. Jurnal San'at. №2, 37-38-bet.
35. Хилда Хукхем. Властитель семи созвездий.-Т.: "Adolat", 1995.
36. Fitrat A. O'zbek klassik musiqa va uning tarixi.-Т., 1993
37. Ян Пеккер. Узбекская опера. -М., 1984.
38. Nagel Tilman The perception of Amir Temur and Central Asia at the begining og renaissance. // Amir Temur.-T.: 1997.
39. Roux Jean-Paul. Tamerlan.-Paris. 1994.
40. Schimmel Annemarie. Samarkand in the epoch of Temur and the Temurids. // Amir Temur.-T.: 1997.

MUNDARIJA

Kirish	4
Xalqaro musiqiy aloqlar tarixidan	5
XX asr ikkinchi yarmidan – O‘zbekiston musiqa san’atining jahonga yuz tutishi	13
Mustaqil O‘zbekiston musiqasi – umumjahon musiqa madaniyatining tarkibiy qismi	18
O‘zbek musiqali teatri	22
O‘zbek simfonizmi	29
O‘zbek bastakorlik ijodiyoti: o‘tmish va hozirgi zamон	37
O‘zbekiston musiqa ilmi	44
Amir Temur qiyofasi Yevropa opera ijodiyotida: haqiqat va badiiyat	51
O‘zbekiston musiqiy estradasi: kecha va bugun	66
Mavzularni mustahkamlash uchun savollar	73
Mustaqil o‘zlashtiriluvchi mavzular	76
Glossariy	77
Test savollari	78
Tavsiya etilgan adabiyotlar	90

СОДЕРЖАНИЕ

Введение	4
Из истории музыкальных связей	5
Вторая половина XX века – музыкальное искусство Узбекистана, обращенное в мировое пространство	13
Музыка независимого Узбекистана – составная часть всемирной музыкальной культуры	18
Узбекский музыкальный театр	22
Узбекский симфонизм	29
Узбекское бастакоровское творчество: прошлое и современность ...	37
Музыкальная наука Узбекистана	44
Образ Амира Темура в Европейском оперном творчестве: правда и художественность	51
Музыкальная эстрада Узбекистана: вчера и сегодня	66
Вопросы укрепления тем	73
Темы самостоятельного освоения	76
Глоссарий	77
Тесты	78
Рекомендуемая литература	90

CONTENT

Introduction	4
From history of international musical relations	5
From the second half of XX century – Uzbek art of music took its role in the world	13
Music of independent Uzbekistan is an integral part of world music culture.....	18
Uzbek musical theater.....	22
Uzbek symphonism	29
Artistry of Uzbek bastakors: past and present times	37
Science of Uzbek music	44
Embodiment of Amir Temur in opera of Europe: truth and artistry	51
Musical estrada of Uzbekistan: yesterday and today	66
Questionnaires for strengthening themes.....	73
Themes for self-study.....	76
Glossary.....	77
Tests	78
References	90